

YANGI O'ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 162 (1223), 2024-yil 14-avgust, chorshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

O'zbekiston tashqi siyosatida
YANGI MARKAZIY OSIYO

O'tgan hafta Ostona shahrida yakunlangan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining oltinchi Maslahat uchrashuvi mintaqadagi barcha mamlakatlarning so'nggi olti yildagi navbatma-navbat raisligi yakunlarini ramziy tarzda sarhisob qildi va ushbu noyob formatdagi davlatlararo hamkorlikning yangi bosqichini boshlab berdi.

Mamlakatlarimiz birinchi marta mintaqaviy kooperatsiyani rivojlantirishga doir yagona qarashni — "Markaziy Osiyo — 2040" konsepsiyasini kelishib oldilar. Bu hujjat davlatlarning mintaqaviy hamkorlik jarayoniga ortga qaytmas va izchil tus berishga sodiq ekanini tasdiqladi. U o'zaro hamkorlikning barcha asosiy sohalarini qamrab oldi, istiqbolga mo'ljallangan aniq amaliy rejalarni, ularni amalga oshirish shakllari va mexanizmlarini belgilab berdi.

Ostona sammiti o'z mohiyatiga ko'ra, mintaqaviy davlatlarning hamkorligini yanada izchil ilgari surish, **Markaziy Osiyo beshligi** doirasida har tomonlama kooperatsiyani kengaytirishga bo'lgan intilishini namoyish etdi.

2018-yilda Ostona shahrida o'tkazilgan birinchi uchrashuvdan buyon o'tgan davrda Markaziy Osiyo mamlakatlari ancha katta yo'lni bosib o'tdi. Bu haqda gapirganda, biz birgalikda Markaziy Osiyoning zamonaviy qiyofasini o'zgartirib, mintaqani tinchlik va hamjihatlik, do'stlik va yaxshi qo'shnichilik, o'zaro ishonch va hamkorlik makoniga aylantirish yo'lidagi sa'y-harakatlarimizning barcha asosiy bosqichlarini eslash o'rindirdi.

Bundan bor-yo'g'i yetti yil oldin chegaralarimiz deyarli to'liq yopilgan edi. Biz chegarada hududlardagi mojarolar va minalangan dalalarga, transport blokadalariga, savdo sohasida baland to'siqlar o'rnatilganiga guvoh edik.

Suv resurslaridan, yaylovlar va suv xo'jaligi obyektlaridan foydalanish masalalari bo'yicha tinimsiz tortishuvlarning ochiq qarama-qarshilikka aylanib ketish xavfi bor edi.

Mintaqadagi ba'zi kuchlar ishonchsizlik ruhini avj oldirish va umumiy tarixiy merosimizdan o'z manfaatlarini uchun foydalanish orqali muxoliflik va raqobatni keltirib chiqarardi. Tarqoqligimiz bizni zaiflashtirar, birlashish istiqbollari mahrum etar, mintaqaviy salohiyatini mustarak manfaatlar yo'lida ro'yobga chiqarishga to'sqinlik qilardi.

Bularning barchasi asrlar davomida yonma-yon tinch-totuv yashab kelgan, bir dinga e'tiqod qilgan, umumiy urf-odat va an'analarga ega bo'lgan, minglab ko'rinmas rishtalar bilan bog'langan Markaziy Osiyo xalqlarining madaniy-sivilizatsiyaviy qadriyatlariga mutlaqo zid edi.

Qolaversa, global ishonch inqirozining chuqurlashuvi va qurqliq mojarolarning keskinlashuvi mintaqaning barqarorligi va izchil rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsata boshladi. Shu munosabat bilan Markaziy Osiyoning boshqa mamlakatlari va xalqlari kabi O'zbekistonning ham farovonligi hamkorlikni mustahkamlash borasidagi umumiy sa'y-harakatlarga, mintaqada xavfsizlik va barqaror taraqqiyotni ta'minlash manfaatlarini birgalikda ilgari surishga tayyorligiga bog'liq, degan tushuncha tobora mustahkamlandi.

Shuni e'tirof etish kerakki, tub o'zgarishlarga, to'planib qolgan muammolarni hal etishga, qo'shnilar bilan o'zaro munosabatlarni yo'lga qo'yishda eskirgan yondashuvlardan batamom voz kechishga bo'lgan ijtimoiy talabni chuqur his qilgan yetakchi — **O'zbekistonning yangi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev** bo'ldi.

O'zbekiston rahbari yangi yaxlit Tashqi siyosat doktrinasi shakllantirdi. Unda xalqaro va mintaqaviy xavfsizlikning dolzarb muammolari, zamonaviy tahdid va xatarlar, yangi dunyo tartibotini shakllantirish va boshqa masalalarga nisbatan O'zbekistonning qarashlari va yondashuvlari belgilangan.

Doktrinada dunyoning rivojlangan davlatlari bilan teng huquqlilik, o'zaro hurmat, ishonch va bir-birining manfaatlarini hisobga olish asosida ko'p qirrali hamkorlikni rivojlantirish ko'zda tutilgan. Osiyo, Yevropa, Amerika va Afrikaning yetakchi davlatlari, nufuzli xalqaro tashkilotlar bilan izchil siyosiy muloqotni qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratilgan.

Ushbu Doktrinada O'zbekiston Prezidenti tomonidan Markaziy Osiyo mintaqasi O'zbekiston tashqi siyosiy faoliyatining asosiy ustuvor yo'nalishi etib belgilangan. "Qo'shnilar bilan hech qanday muammo bo'lmasligi"ga erishish eng muhim maqsad qilib qo'yildi. O'z xavfsizligini boshqa davlatlar xavfsizligi hisobiga mustahkamlashga yo'l qo'ymaslik, ochiqlik, pragmatizm va konstruktivlik, teng huquqlilik, o'zaro hurmat va manfaatlarni hisobga olish, proaktiv muloqot tamoyillari mintaqaviy siyosatning konseptual asosiga aylandi.

O'zbekiston obyektiv ravishda Markaziy Osiyoning kelajagi uchun alohida mas'uliyatni o'z zimmasiga olgan. Bu omil biz mintaqaning barcha mamlakatlari bilan

umumiy chegaralarga ega ekanligimiz bilan izohlanadi. Mamlakatimizda Markaziy Osiyo aholisining yarmidan ko'pi, mintaqadagi barcha xalqlarning yirik jamoalari yashaydi. O'zbekiston taraqqiyotining deyarli barcha hayotiy muhim masalalari — suvdan tortib, transport yo'laklari, mintaqaviy xavfsizlik va savdo-sotiqqacha chegaradosh davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik va oldindan taxmin qilish mumkin bo'lgan munosabatlarga bog'liq.

Aynan shuning uchun ham O'zbekiston rahbari 2016-yilda Parlamentga yo'llagan birinchi murojaatnomasida **ustuvor yo'nalishlarni aniq belgilab, Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan munosabatlarni mustahkamlashni birinchi o'ringa qo'yan edi.** "Mamlakatimizning milliy manfaatlarini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'lgan **Markaziy Osiyo mintaqasi O'zbekiston tashqi siyosiy faoliyatining asosiy ustuvor yo'nalishi hisoblanadi.** Biz yaqin qo'shnilarimiz Turkmaniston, Qozog'iston, Tojikiston va Qirg'iziston bilan ochiq, do'stona va pragmatik siyosat olib borishga sodiq qolamiz", deb ta'kidladi Shavkat Mirziyoyev.

Davlatimiz rahbari saylovdan keyin ko'p vaqt o'tmay Ashxobod va Ostona shaharlariga ilk rasmiy tashriflarini amalga oshirib, **Markaziy Osiyo — ustuvor**, degan tamoyilni yana bir bor tasdiqlagan bejiz emas.

Mamlakatimiz yetakchisi ushbu tarixiy murojaatida Toshkentning yaqin qo'shnilariga nisbatan konstruktiv siyosat olib borish, to'planib qolgan mintaqaviy muammolarni teng huquqlilik, o'zaro manfaatlarni hisobga olish va oqilona murosaga erishish asosida hal etish, mintaqamizning qoq markazida joylashgan mamlakat sifatida O'zbekiston atrofida do'stlik va farovonlik, xavfsizlik va barqarorlik hududini yaratish borasidagi qat'iy niyatini bayon etdi.

O'zbekiston rahbari tomonidan hukumat va tashqi siyosat idoralari oldiga **mintaqaviy siyosatning asosiy vazifalari** — chegaralarni tartibga solish jarayonlarini yakunlash, suvdan oqilona va adolati foydalanish masalalarini birgalikda hal etish, mamlakatlarning iqtisodiy, ekologik, transport-logistika va ilmiy-texnologik rivojlanishdagi o'zaro bog'liqligini shakllantirish va boshqa masalalar belgilab berildi.

Toshkentning Markaziy Osiyoda siyosiy-diplomatik, iqtisodiy, madaniy-gumanitar hamkorlikni yo'lga qo'yish borasidagi yondashuvlaridagi o'zgarishlar nafaqat O'zbekistonning qo'shnilar bilan davlatlararo munosabatlarni tubdan yaxshilash uchun sharoit yaratdi, balki Markaziy Osiyoning yangi formatda yanada jipslashishi va integratsiyalashuviga zamin bo'ldi.

Shu ma'noda, **Sh.M.Mirziyoyev tashabbusi bilan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvlari (MODRMU) yo'lga qo'yilishi** butun mintaqada

uchun eng muhim voqea bo'lib, bugungi kunda **barqarorlik, xavfsizlik va izchil taraqqiyot hududini birgalikda barpo etishga** qaratilgan mintaqaviy muloqotning samarali maydoniga aylandi.

Muntazam uchrashuvlar o'tkazish g'oyasi ilk bor O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2017-yil sentabr oyida BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida ilgari surilgan edi. O'shanda davlatimiz rahbari mamlakat tashqi siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishi "tinchoqchilik, iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan Markaziy Osiyo" ekanini, O'zbekistonning barcha sa'y-harakatlari "o'zaro muloqot, amaliy hamkorlik va yaxshi qo'shnichilikni mustahkamlash"ga qaratilishini ta'kidlagan edi.

O'sha yilning noyabr oyida Prezidentimiz tashabbusi bilan Samarqandda "Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo'lidagi hamkorlik" xalqaro konferensiyasi bo'lib o'tdi. Unda ishtirok etgan mintaqaning besh davlati tashqi ishlar vazirlari O'zbekiston yetakchisi tomonidan ilgari surilgan tashabbusni — davlat rahbarlarining Maslahat uchrashuvlarini ta'sis etish to'g'risidagi taklifini qo'llab-quvvatladi. Aynan o'shanda barcha mamlakatlarning mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish, o'z davlatlari va butun mintaqaga uchun dolzarb bo'lgan masalalarni birgalikda muhokama qilish, ularga yechim izlash va qaror qabul qilish maqsadini ifoda etuvchi "**Samarqand konsensusi**" shakllandi.

"Samarqand konsensusi"ni xalqaro hamjamiyat ham qo'llab-quvvatladi. Oradan atigi yarim yil o'tib, **2018-yil iyun oyida O'zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasi "Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik, barqarorlik va izchil taraqqiyotni ta'minlash bo'yicha hamkorlikni mustahkamlash" rezolyutsiyasini qabul qildi.** Ushbu hujjatda Markaziy Osiyo mamlakatlarning mintaqada barqarorlik va iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan sa'y-harakatlari va tashabbuslari yuqori baholandi.

Bularning barchasi bir necha yil ichida Markaziy Osiyodagi vaziyatni tubdan o'zgartirish imkonini berdi. Avvalo, chegara masalalari bo'yicha mavjud murakkab va nozik muammolarni bartaraf etishga erishildi.

O'zbekiston Qozog'iston bilan chegarani huquqiy rasmiylashtirishni to'liq yakunladi, Turkmaniston, Tojikiston va Qirg'iziston bilan chegarani delimitatsiya qildi. Chegaradagi o'nlab o'tkazish punktlari o'z faoliyatini tiklab, mamlakatlarimiz o'rtasida odamlarning harakatlanishini sezilarli darajada osonlashtirdi.

Davomi 3-betda

SUN'IY INTELLEKT VA STARTAP
LOYIHALARNI RIVOJLANTIRISH
BO'YICHA TAQDIMOT O'TKAZILDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 13-avgust kuni sun'iy intellekt va IT sohasidagi startap loyihalarni rivojlantirish chora-tadbirlariga doir taqdimot bilan tanishdi.

Mamlakatimizda axborot texnologiyalari jadal rivojlantirilib, barcha sohalarida tatbiq etilmoqda. Bularning natijasida shu yilning o'tgan davrida raqamli xizmatlar hajmi 21 trillion so'mdan oshdi, yil yakuni bilan 43 trillion so'mga yetishi kutilmoqda. Sohada 367 million dollarlik xizmatlar eksport qilindi. IT-park rezidentlari 577 taga ko'payib, 2 mingtadan oshdi. Ularda ishlayotgan yoshlar soni esa 32 mingtaga yetdi.

Bu yil sog'liqni saqlash, energetika, transport, ta'lim, qishloq va suv xo'jaligi, qurilish kabi sohalarida 100 dan ortiq raqamlashtirish loyihalari amalga oshirilmogda.

Zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Jahonda har bir sohaga sun'iy intellekt, raqamli texnologiyalar kirib kelyapti. Bu borada yurtimizda ham qator loyihalar boshlangan.

Misol uchun, "MyID" va "UzFace" dasturlari 70 dan ortiq tashkilot, bank, elektron savdo maydonchalari va to'lov tizimlarida joriy qilinib, 10 million foydalanuvchini masofaviy biometrik identifikatsiya qilish imkoniyati yaratildi. "O'zbekkosmos" sun'iy intellektni qo'llab, 43 mingga yaqin yer qaridan noqonuniy foydalanish va ruxsatsiz qurilish holatlarini aniqladi.

Taqdimotda sog'liqni saqlash, qishloq xo'jaligi, bank, soliq, bojxona kabi sohalarida sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish chora-tadbirlari ko'rib chiqildi.

Avvalo, sun'iy intellekt bo'yicha qonunchilik bazasini yaratish kerakligi qayd etildi. Sun'iy intellektni joriy etish strategiyasi va ikki yillik loyihalar dasturini ishlab chiqish vazifasi qo'yildi. Sun'iy intellekt texnologiyalari markazini tashkil qilish bo'yicha topshiriq berildi.

Xususan, bank-moliya sohasida sun'iy intellektni qo'llashni kengaytirish, bu bo'yicha kadrlar tayyorlash va xodimlar malakasini oshirish zarurligi ta'kidlandi.

Bugungi kunda 4 ta universitetda sun'iy intellekt bo'yicha kadrlar tayyorlanayapti. Hozirda katta ma'lumotlarni qayta ishlash va til modellarini bo'yicha 600 nafar mutaxassisga talab bor. Bu kelgusi yillarda karrasiga oshadi. Shuni inobatga olib, sohalar kesimida talabga mos mutaxassislar tayyorlash muhimligi aytiladi.


Dunyoning barcha ilg'or IT kompaniyalari o'z faoliyatini startapdan boshlagan. Bizda ham bu borada birinchi qadamlar tashlanayapti. O'tgan yili bunday loyihalar uchun jalb qilingan venchur investitsiyalar hajmi 134 million dollarni tashkil qilgan.

Davlatimiz rahbari startap loyihalarni moliyalashtirish uchun venchur investitsiyalarga keng sharoit yaratish vaqti kelganini ta'kidladi. Shu bois, startap ekotizimini rivojlantirish, venchurli moliyalashtirish mexanizmlarini joriy qilish bo'yicha topshiriqlar berildi.

O'ZA

"PARIJ — 2024":
PARA SPORTCHILARIMIZDAN HAM
REKORD NATIJALAR KUTAMIZ

Parijda Olimpiya shukhi davom etadi. Bu yerda 28-avgust — 8-sentabr kunlari XVII yozgi Paralimpiya o'yinlari bo'lib o'tadi. Ushbu nufuzli musobaqalarda O'zbekiston delegatsiyasi 65 sportchi bilan qatnashadi.



Hamyurtlarimiz sportning 9 turi — yengil atletika, taekvondo, o'q otish, suzish, kano, akademik eshak eshish, dzyudo, pauerlifting va velosport yo'nalishlaridagi 113 ta sovrinli o'rinar uchun bahslarda qatnashadi. Bu ko'rsatkich O'zbekiston paralimpiyasi tarixida hozircha rekord sanaladi. Paralimpiyachilarimiz 2016-yil Rio-de-Janeyro shahrida bo'lib o'tgan o'yinlarda 32 ta, Tokio o'yinlarida 70 ta litsenziyani qo'lga kiritgan edi.

Kecha poytaxtimizdagi Olimpiya va Paralimpiya shon-shuhrati muzeyida O'zbekiston paralimpiya delegatsiyasini Parijga kuzatish marosimi bo'lib o'tdi.

Tantanal marosimda O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Abdulla Aripov, Ijtimoiy himoya milliy agentligi raisining

**PARIS 2024
PARALYMPIC GAMES**



birinchi o'rinbosari Shahnoza Mirziyoyeva ishtirok etdi.

XVII yozgi Paralimpiya o'yinlarida O'zbekiston delegatsiyasi bayroqkorlari Osiyo hamda Olimpiya o'yinlari g'oliblari Husniddin Norbekov hamda Mohigul Hamdamova bo'ladi.

"Parij — 2024" XVII yozgi Paralimpiya o'yinlarining rasmiy ochilish marosimi 28-avgust kuni bo'lib o'tadi.



E'tirof

O'ZBEKISTON BOKSCHILARI
"PARIJ - 2024" YOZGI OLIMPIYA
O'YINLARIDA YANGI TARIX YARATDIFRANSUZ OAV O'ZBEK CHARM QO'LOP
USTALARINING QO'LGA KIRITGAN OLAMSHUMUL
G'ALABALARI HAQIDA

Jumladan, Fransiyaning sport mavzusini yoritishga ixtisoslashgan markaziy nashrlaridan biri — "L'Equipe" gazetasida bosilgan maqolada yozilishicha, Parijda bo'lib o'tgan yozgi Olimpiya o'yinlarida boks bo'yicha O'zbekiston erkaklar terma jamoasi yettita vazn toifasida o'tkazilgan janglarning beshtasida oltin medalni qo'lga kiritib, jahonda tengsiz ekanini yana bir marta namoyish etdi.



Parijdagi yozgi Olimpiya o'yinlarining boks bo'yicha bahslari O'zbekiston charm qo'lqop ustalari uchun tarixiy natija bilan yakunlandi, deb ta'kidlagan "Olympics.com".

"Mashhur "Rolan Garros" majmuasida boks bo'yicha hal qiluvchi janglar bo'lib o'tgan so'nggi Olimpiya kuni O'zbekiston terma jamoasi uchun, aytish mumkinki, bu mamlakatning butun sporti uchun zafarlarga boy kechdi, — deb yozgan mazkur nashr. — Zero, final janglarida ketma-ket uchta Olimpiya o'yinlarining ochilish marosimida

O'zbekiston delegatsiyasining bayroqdori bo'lgan bokschilar oltin medallar uchun kurash olib bordi. "Rio — 2016" va "Tokio — 2020" yozgi Olimpiya o'yinlarining tanalanil ochilish marosimlarida o'z davlati bayrog'ini Bahodir Jalolov ko'targan bo'lsa, "Parij — 2024"da bunday sharafli vazifa Abdumalik Xalqov chekiga tushdi".

"20 minutes.fr" nashrida e'lon qilingan "Finalda besh bokschil... O'zbekistonning siri nimada?" maqolasida jurnalistlar boks O'zbekistonda eng ommabop sport

turlaridan biri ekanini va ko'plab o'zbek bolalari yoshligidan ushbu sport turi bilan shug'ullanishini qayd etgan.

Nashrda so'nggi yillarda O'zbekistonga professor Karlos Vilyanuyeva rahbarligidagi Kuba boks maktabidan mutaxassislar taklif etilgani, butun mamlakat bo'ylab boks to'garaklari ishi tahlil qilingani, mashg'ulotlar jarayoni individuallashtirish, samarali rejalashtirish bo'yicha dasturlar ishlab chiqilgani va tajribali bokschilarning mashg'ulot jarayoni hamda faoliyati puxta o'rganilgani ma'lum qilingan. Har bir sportchi o'z salohiyatini maksimal darajada oshirishi uchun barcha zarur sharoitlar yaratilgan, deb qayd etilgan materialda.

"O'zbekiston terma jamoasining barcha yosh toifalaridagi bokschilarida katta salohiyat bor. Shubhasiz, o'zbek bokschilari juda kuchli, katta iqtidor va yuqori texnikaga ega. O'zbekistonning iqlimi, mevalari, vitaminlarga boy oziq-ovqatlar sportchilar uchun juda muhim, ular kuch-quvvat bag'ishlaydi", — deya Kuba terma jamoasi bosh murabbiyi Rolando Montesning so'zlaridan iqtibos keltirilgan maqolada.

Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, aksariyat fransuz ommaviy axborot vositalari O'zbekiston bokschilari — Hasanboy Do'smatov, Asadxo'ja Mo'yidinxo'jayev, Lazizbek Mullajonov, Abdumalik Xalqov va Bahodir Jalolov o'zlarining final janglarini ishonch bilan o'tkazib, "Parij — 2024" yozgi Olimpiya o'yinlarida yangi tarix yaratganini alohida urg'ulagan.

"Dunyo" AA

Parij

Shukuh

TOMIRIMDA POLVONLAR
QONI BOR!

Muzaffar TO'RABOYEV,
Olimpiya o'yinlari bronza medali
sohibi:

— Yoshligimdan dzyudoga qiziqishim, ishtiyoqim boshqacha. Balki bu tomirimda polvonlarning qoni borligidandir. Otam — Toshtemir Muhammadiyev kurash bo'yicha og'ir vaznda jahonning mutlaq chempioni. Akam va ukam ham dzyudochi.

Har bir sportchining eng katta maqsadlaridan biri Olimpiada chempioni bo'lish va vatani sharafini jahon arenalarida munosib himoya qilishdir. Parijga har bir safdoshimiz shu maqsadni ko'zlab otlagandi.

Bugun qaysidir ma'noda buni udaladik. Ayniqsa, Diyoraning zafarli chiqishidan so'ng davlatimiz rahbari bilan telefon orqali



muloqot qilishi bizni ham zafarli odimlar qilishga undadi.

Har safar tatamiga O'zbekistonda bizni millionlab yurtdoshlarimiz duo qilib turibdi, degan ishonch bilan chiqardim.

Bu musobaqada hech bir davlat ishtirokchilari biz kabi qo'llab-quvvatlamadi. Olimpiadada g'alabalar bilan birga biz o'zga davlat vakillariga, ishtirokchilarga birligimizni ham ko'rsatdik. Bizga kuch-g'ayrat va ishonch bag'ishlab turgan barcha-barchani ushbu tarixiy g'alabalar bilan tabriklayman. Bu bargini sportchilarning emas, balki bizga barcha sharoitlarni yaratib bergan davlatimiz rahbarining, to'g'ri yo'l-yo'riq ko'rsatgan murabbiylar, ota-onamiz, butun xalqimizning yutug'i.

Men ham bu musobaqaga katta maqsad bilan, ya'ni oltin medalni olish uchun qatnashgandim. Ammo... Keyingi Olimpiada Los-Anjelesda bo'lib o'tadi. Nasib etsa, bu safar yurtimizga oltin medal bilan qaytaman.

MUXLISLARINING QO'LLAB-
QUVVATLASHI BIZGA KUCH BERDI

Akbar JO'RAYEV,
Olimpiya o'yinlari kumush medali
sohibi:

— Bu yil o'zbek sporti tarixida yangi sahifa ochildi, deya baralla ayta olamiz. Turli davlatlar ori uchun maydonga tushgan sportchilar bilan munosib kurashib, vatanimizga yangi g'alabalar, rekordlarni bag'ishladik.

Olimpiadada keskin kechgan bahslarda har bir safdoshimiz faqat va faqat g'alaba uchun maydonga tushdi. Ayniqsa, muxlislarining qo'llab-quvvatlashi bizga o'z gacha kuch-g'ayrat bag'ishladi.

Og'ir atletikada kumush medalni qo'lga kiritdim. 10 yoshimdan buyon shu sport turi bilan shug'ullana boshlaganman. Bugungacha Osiyo va jahon chempionligiga erishdim. Tokio Olimpiadasi chempioni bo'lib, rekordni yangilagandim.

Musobaqa jarayonida har bir vatandoshimiz chiqishini nafaqat yurtdoshlarimiz, balki qo'shni qardosh xalqlar, hattoki boshqa millat vakillari ham yaxshi kayfiyat bilan kutib oldi, ular tomonidan munosib qo'llab-quvvatlandi.

Ayniqsa, yurtimiz bayrog'i balandga ko'tarilishi, madhiyamiz yangrashi bizga o'z gacha g'urur bag'ishladi. Aslida, har bir yurt farzandining vazifasi, qaysi sohada bo'lishidan qat'i nazar, davlatning sha'ni, yurtning orini himoya qilish, millat bayrog'ini xalqaro maydonda baland ko'tarishdir.

Bu yo'lda faqatgina yaratib berilayotgan sharoitlardan munosib foydalanib, bor kuch-g'ayrat bilan ulkan maqsadlar sari harakat qilish kerak. Bugun O'zbekiston yoshlari xalqaro maydonda nimalarga qodirligini isbotlab, yangi tarixni zarhal



harflar bilan bitmoqda. Men ham keyingi musobaqalarda bundan-da yuqori natijalar qayd etishga, xalqimiz ishonchini oqlashga harakat qilaman.

Prezident qarorlari — hayotda va nazoratda

BOJXONA MA'MURIYATCHILIGINI
ISLOH QILISHNING MUHIM DAVRI

Akmalxo'ja MAVLONOV,
bojxona qo'mitasi raisi

Prezidentimiz tomonidan 2022-yil 17-fevralda bojxona ma'muriyatchiligini yanada takomillashtirishga qaratilgan ustuvor vazifalar bo'yicha o'tkazilgan yig'ilish hamda o'sha yili 27-aprelda qabul qilingan "Bojxona ma'muriyatchiligini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmon sohani isloh qilishning tom ma'nodagi yangi davrini boshlab berdi.

Farmon bojxona ma'muriyatchiligini yangi bosqichga olib chiqish, bojxona va yuk operatsiyalarini raqamli transformatsiya qilish orqali inson omilini keskin qisqartirish maqsadida qabul qilindi.

Ijro intizomi — amalda

Bojxona organlarida ijro intizomini mustahkamlash, qonunlar, Prezidentimiz farmon, qaror va farmoyishlari hamda boshqa topshiriqlari ijrosini belgilangan muddatlarda, sifatli bajarishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bu borada davlatimiz rahbarining 2021-yil 10-fevraldagi "Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni hamda o'sha yil 31-maydagi "Ijro.gov.uz" ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlashga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida belgilangan tartiblar qat'iy rioya etilib, ijrosi nazoratga olingan.

Aynan shu masalada O'zbekiston Bosh vaziri maslahatchisi R.Abdug'odirovning "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini bosh muharriri S.Doniyorov bilan 2021-yil iyulda chop etilgan "Ishni jamoa bajaradi, mas'uliyat esa shaxsiy!" mavzusidagi suhbatida qo'yilgan talablardan kelib chiqib, tegishli vazifalar belgilab olingan.

Xususan, Prezident hujjatlari bilan bojxona organlariga 2022-2023-yillar va 2024-yil birinchi yarim yilligida jami 1273 ta topshiriq bajarilishi yuklatilgan bo'lib, barchasining ijrosi ta'minlangan. Joriy yil yakuniga qadar 190 ta topshiriqning bajarilishi qat'iy nazorat qilinmoqda.

Bojxona ma'muriyatchiligini takomillashtirish, tizimni raqamlashtirish orqali inson omilini qisqartirish orqali

Kontrabanda, yashirin
iqtisodiyot va bojxona
qonunbuzilishlariga qarshi
kurashish

Yurtimiz aholisi sog'lig'i va xavfsizligini ta'minlash borasida bojxona organlari tomonidan amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida 2022-2023-yillar va 2024-yilning dastlabki 6 oyida 10 ming 722 kilogramm giyohvandlik vositalari, 681 ming dona psixotrop va kuchli ta'sir etuvchi moddalar, 131 milliard so'mlik 8,2 million quti tamaki mahsulotlari, 54 ming 67 dona taqchilangan material to'xtatib qolindi.

Mamlakatimiz osoyishtaligiga raxna solishi mumkin bo'lgan 58 dona qurol, 3084 ta o'q-dori bojxona chegaralari orqali noqonuniy olib o'tilishining oldi olindi.

Yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish borasida 2,4 trillion so'mlik tovarlar, shu jumladan, 100 milliard so'mga yaqin ekvivalentdagi naqd xorijiy valyuta, 89 milliard so'mlik zargarlik buyumlarining noqonuniy aylanmasiga chek qo'yildi.

Chegarada tovarlarni identifikatsiya qilish ishlarini kuchaytirish va bojxona ko'rikleri natijasida 30 mingga yaqin tafovut aniqlanib, 1,2 trillion so'mlik noqonuniy tovarlar dalilii ahyo tariqasida olindi.

Integratsiyalashuvdan
tezkorlikka

Bojxona organlarining mavjud axborot tizimlarini tegishli vazirlik va idoralar hamda xorijiy davlatlar bojxona xizmatlarining axborot tizimlari bilan o'zaro integratsiyalashga ham alohida e'tibor qaratilmoqda.

2022-2023-yillar va 2024-yilning o'tgan davrida sohani raqamlashtirish borasida yangi 23 ta axborot tizimi ishlab chiqildi. Natijada



tadbirkorlar va fuqarolarga qulayliklar yaratish, ijtimoiy sohalarni qo'llab-quvvatlash va boshqa yo'nalishlarda 75 ta normativ-huquqiy hujjat ishlab chiqildi (2 ta qonun, Prezidentning 8 ta hujjati, Vazirlar Mahkamasining 36 ta qarori, 3 ta farmoyishi va 26 ta idoraviy hujjati).

Raqamlar tilga kirganda...

Tahlillarga ko'ra, keyingi ikki yarim yilda respublikamizning tovarlar tashqi savdosi (maksus eksportdan tashqari) 109 milliard dollarni, shu jumladan, eksport 27 milliard dollarni, import esa 82 milliard dollarni tashkil qildi.

Chegara bojxona postlari orqali harakatlangan yukli avtotransportlar 3 million va yukli vagonlar 3,3 million tani tashkil qildi. Bunda yo'lovchilar oqimi oshganini alohida ta'kidlash joiz. Masalan, chegaralar orqali harakatlangan yo'lovchilar 100 million nafarga yetib, 2019-2021-yillardagiga nisbatan 47 foiz yoki 32 million nafarga oshgan.

Tadbirkorlarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash maqsadida 32 mingdan ortiq tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchisiga 140 trillion so'm bojxona to'lovlardan imtiyoz va preferensiyalar qo'llanildi, 15 trillion so'm bojxona to'lovi kechiktirib to'lashga ruxsat berildi. Davlat byudjetiga 139 trillion so'm bojxona to'lovlari o'tkazildi.

Bojxonaning ijtimoiy
hayotdagi faolligi ortib
bormoqda

2023-yil 29-avgust sanasi O'zbekiston bojxona xizmati organlari tarixiga zarhal harflar bilan bitildi. Yangi O'zbekiston tarixida ilk bor Prezidentimiz Bojxona qo'mitasiga tashrif buyurdi. Mohiyatan bu tashrif so'zimiz avvalida tilgan olingan farmoning ijrosi yuzasidan davlatimiz rahbariga berilgan o'ziga xos hisobot bo'ldi.

Qolaversa, bojxona tizimi hamisha davlatimiz rahbarining diqqat e'tiborida ekanini anglatish barobarida bojxona xodimlariga bildirilgan yuksak ishonchdan dalolat berdi.

Mazkur tashrifda bojxona organlariga ijtimoiy sohalar va xalq xo'jaligining boshqa yo'nalishlarini qo'llab-quvvatlash borasidagi ishlarni yanada kuchaytirish bo'yicha ham qator topshiriqlar berildi.

Natijada Toshkent shahri, Jizzax, Sirdaryo, Farg'ona va Qashqadaryo viloyatlarida vasiylikka olingan 840 yosh, 550 erkak va 720 ayol istiqomat qilayotgan 5 ta "Muruvvat" va 2 ta "Saxovat" uyida qurilish ishlari nihoyasiga yetkazilib, foydalanilishga topshirildi.

Bojxona hududida qayta
ishlash — tadbirkorlar uchun
munosib qulaylik

"Bojxona hududida qayta ishlash" rejimi so'nggi ikki yilda tadbirkorlar, xususan, eksportyorlar orasida keng ommalashib bormoqda.

Joriy yilda ushbu rejimdan foydalangan tadbirkorlar 70 foiz yoki 102 taga oshib, 248 nafarni tashkil etdi, 333 million dollarga teng tovarlar joylashtirildi hamda 11 foiz yoki 34 million dollar ortdi. Qayta ishlangan 423 million dollarlik tovarlar eksport qilinib, bu ko'rsatkich 45 foiz yoki 132 million dollarga ko'paydi.

"Eksport uch qadamda" loyihasi ishga tushirilib, yuk deklaratsiyasini to'ldirishning 9 bosqichli tartiboti 3 barobar qisqardi.

Natijada tadbirkorlarning yuk deklaratsiyasini to'ldirish vaqti 30 daqiqadan 5 daqiqaga qisqarib, rasmiylashtirish uchun yillik 80 milliard so'm xarajatlari tejalandi.

"Yashil" energiya
bojxona bilan

Respublika miqyosida qayta tiklanuvchi energiya manbalari o'rnatilishini nazorat qilish aynan bojxona organlariga yuklatilgan. Joriy yilning 1-iyul holatiga jami 63 ming 463 ta obyektga 504,7 MVt quvvatdagi quyosh panellari o'rnatildi. Natijada bugungacha kunga qadar 272 ming MVt/soat elektr energiyasi yoki 250 milliard so'm iqtisod qilindi.

Bu borada bojxona organlarining o'zi ham alohida namuna ko'rsatmoqda. Xususan, hozirga qadar 60 ta bojxona obyektiga 3 MVt quvvatli quyosh panellari o'rnatilib, 3,3 milliard so'm, shu jumladan, 2023-yilda 2 milliard so'm, 2024-yilning 6 oyida 1,3 milliard so'm budjet mablag'i elektr energiyasi iste'molidan iqtisod qilindi.

Xorijiy investitsiyalar bilan
ishlash yo'nalishida

Bojxona organlari zimmasiga yuklangan vazifalardan yana biri xorijiy investitsiyalar o'zlashtirilishini muvofiqlashtirish bo'lib, bu borada joriy yilning birinchi yarim yilligida 454 ta loyiha bo'yicha 3,5 milliard dollarlik xorijiy investitsiya tahlil qilib borildi.

Natijada 122 ta loyiha ijrosida muammolar aniqlanib, ulami bartaraf etish yuzasidan ishlab chiqilgan "yo'l xaritasi" hukumat komissiyasi tomonidan tasdiqlandi.

Hozirga qadar muammolarning 35 tasi bartaraf etilib, qo'llanilgan respublika shtabi orqali mas'ul tashkilotlar bilan birga hal etish choralarini ko'rilmoqda.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish yo'nalishida bugungi kunga qadar 13 ta hudud bo'yicha 1,7 trillion so'mlik 75 loyiha ishga tushirilib, 1738 ta yangi ish o'rni yaratildi. Hozir 35 loyiha doirasida qandolat, un va mahsulotlari, 23 loyiha bo'yicha sut va sut mahsulotlari hamda salqin ichimliklar, 13 loyiha bo'yicha go'sht va tuxum mahsulotlari, o'simlik yog'lari, 2 loyiha bo'yicha tuz, 1 loyiha bo'yicha pomidor pastasi ishlab chiqarilmoqda va 1 loyiha ijrosida meva-sabzavotlar qayta ishlanmoqda.

O'zbekiston tashqi siyosatida YANGI MARKAZIY OSIYO



Abdulaziz KOMILOV,
O'zbekiston Respublikasi
Prezidentining tashqi siyosat
masalalari bo'yicha maxsus vakili

Boshlanishi 1-betda

Bugungi kunda O'zbekiston va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi chegaralarni haqli ravishda do'stlik va yaxshi qo'shniçilik ko'prigi, deb atash mumkin. 2023-yil 1-sentabrdan boshlab ichki hujjat — fuqaro ID-kartasini taqdim etgan holda O'zbekiston — Qirg'iziston chegarasini kesib o'tish tartibi amal qilayotgani buning tasdiqidir. Xuddi shunday loyiha Qozog'iston tomoni bilan ham muhokama qilinmoqda.

Mintaqamizni Yevropa temir yo'llari tarmog'i bilan bog'lashga mo'ljallangan "Xitoy — Qirg'iziston — O'zbekiston" temir yo'l magistrali qurilishi to'g'risida bitim tuzilishi Markaziy Osiyo uchun transport-tranzit yo'nalishlarini diversifikatsiya qilishda katta yutuq bo'ldi.

Bu yillarda madaniy-gumanitar almashinuv sezilarli darajada faollashdi. Ayni paytda madaniyat yillari, kino kunlari, ko'rgazmalar, konsert va ijodiy safarlar, qo'shma sport tadbirlarini o'tkazish munozam tus oldi. Mamlakatlarimiz fuqarolari xush ko'radigan barcha sayyohlik yo'nalishlarining 80 foizga yaqini mintaqaviy ichki turizmga to'g'ri kelayotgani buning yorqin dalilidir.

Birgina O'zbekistonda 2023-yilda bu ko'rsatkich 6,6 millionni tashkil etdi va ularning aksariyati qo'shni davlatlardan kelgan sayyohlardir.

O'zbekistonning Markaziy Osiyoni barqarorlik va izchil taraqqiyot hududiga aylantirish bo'yicha keng qamrovli strategiyasining yana bir muhim tarkibiy qismi Afg'onistonda uzoq muddatli tinchlikka erishishdir. 2016-yilda Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Prezidenti etib saylanishi bilan Toshkentning afg'on siyosati tizimli va kompleks tus oldi. Afg'oniston bo'yicha yangicha yondashuvning o'ziga xos xususiyati mintaqa davlatlari va butun jahon hamjamiyatining Afg'oniston hududida uzoq muddatli tinchlikka erishish va ushbu mamlakatning mintaqa bilan xo'jalik aloqalariga integratsiyalashuvini ta'minlash borasidagi sa'y-harakatlarini birlashtirish bo'ldi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 2022-yilda qabul qilingan BMT Bosh Assambleyasining "Markaziy va Janubiy Osiyo o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni mustahkamlash" maxsus rezolyutsiyasida Markaziy Osiyo va umumiy aholisi qariyb 2 milliard kishi bo'lgan Janubiy Osiyo o'rtasida aloqalarni o'rnatishda Afg'oniston alohida o'rin tutishi e'tirof etiladi.

Toshkentning Afg'oniston bo'yicha joriy siyosatining yana bir muhim xususiyati shundaki, O'zbekiston Afg'onistonga butun Markaziy Osiyoning uzviy, ajralmas qismi sifatida qaraydi.

Hech kimga sir emaski, yangi Markaziy Osiyo jahondagi qudratli davlatlar va yetakchi davlatlarni o'ziga tartidigan mintaqaga aylandi. Bugungi kunda Markaziy Osiyo 10 dan ziyod "Markaziy Osiyo+" formatlari doirasida 40 ga yaqin davlat va ikkita mintaqaviy tashkilot bilan faol

hamkorlik qilmoqda. Hamkorlik salohiyati va imkoniyatlari haqida gapirganda, ta'kidlash joziba, ushbu iqtisodiy makondagi davlatlar hissasiga jahon yalpi ichki mahsulotining 75 foizi to'g'ri keladi va ularda to'rt milliardga yaqin aholi istiqomat qiladi.

O'zbekiston va Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun bu, eng avvalo, iqtisodiyotimizning muhim tarmoqlariga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish manbalari, tovar va xizmatlarimizni ilgari surish uchun yangi bozorlar, shuningdek, ko'p millionli sayyohlar oqimidir.

O'z navbatida, Markaziy Osiyo hamkorlarimiz uchun 80 milliondan ortiq iste'molchiga ega istiqbolli bozor hisoblanadi. Bu yerda jahon neft va gaz zaxiralarining 7 foizi, raqamli va yashil transformatsiya uchun zarur bo'lgan o'ta muhim nodir materiallarning katta zaxiralari to'plangan. Xususan, mintaqada mavjud 10 turdagi o'ta muhim materiallar zaxirasi 5,2 foizdan 38,6 foizgacha bo'lgan miqdorni tashkil etadi.

Markaziy Osiyo jahonda yaxlit va bir butun hudud sifatida tanilmoqda, u o'zining xalqaro nufuzini mustahkamlash uchun yanada ko'p imkoniyatlarga va tashqi dunyo bilan munosabatlarda kattaroq vaznga ega bo'lishi mumkin.

ahmiyat kasb etib, bu Sirdaryo o'rtasida zarur miqdorda suv yetkazilishini ta'minlash imkonini berdi.

Yangi geosiyosiy sharoitda Markaziy Osiyo Buyuk Ipak yo'li davrida mintaqaga egallagan o'rinni — Sharq va G'arb, Shimol va Janubni bog'lovchi ko'priç, turli iqtisodiy manfaatlar chorrahasi maqomini yana o'ziga qaytarmoqda. Mintaqa Transkaspiy yo'li, Shimol-Janub yo'nalishi, shuningdek, Markaziy va Janubiy Osiyoni bog'laydigan, Xitoydan Yevropaga boradigan yo'laklarni diversifikatsiya qiladigan yangi loyihalar doirasidagi transport-kommunikatsiya yo'nalishlarining muhim qismiga ay-lanmoqda.

Mintaqamizni Yevropa temir yo'llari tarmog'i bilan bog'lashga mo'ljallangan "Xitoy — Qirg'iziston — O'zbekiston" temir yo'l magistrali qurilishi to'g'risida bitim tuzilishi Markaziy Osiyo uchun transport-tranzit yo'nalishlarini diversifikatsiya qilishda katta yutuq bo'ldi.

Bu yillarda madaniy-gumanitar almashinuv sezilarli darajada faollashdi. Ayni paytda madaniyat yillari, kino kunlari, ko'rgazmalar, konsert va ijodiy safarlar, qo'shma sport tadbirlarini o'tkazish munozam tus oldi. Mamlakatlarimiz fuqarolari xush ko'radigan barcha sayyohlik yo'nalishlarining 80 foizga yaqini mintaqaviy ichki turizmga to'g'ri kelayotgani buning yorqin dalilidir.

Birgina O'zbekistonda 2023-yilda bu ko'rsatkich 6,6 millionni tashkil etdi va ularning aksariyati qo'shni davlatlardan kelgan sayyohlardir.

O'zbekistonning Markaziy Osiyoni barqarorlik va izchil taraqqiyot hududiga aylantirish bo'yicha keng qamrovli strategiyasining yana bir muhim tarkibiy qismi Afg'onistonda uzoq muddatli tinchlikka erishishdir. 2016-yilda Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Prezidenti etib saylanishi bilan Toshkentning afg'on siyosati tizimli va kompleks tus oldi. Afg'oniston bo'yicha yangicha yondashuvning o'ziga xos xususiyati mintaqa davlatlari va butun jahon hamjamiyatining Afg'oniston hududida uzoq muddatli tinchlikka erishish va ushbu mamlakatning mintaqa bilan xo'jalik aloqalariga integratsiyalashuvini ta'minlash borasidagi sa'y-harakatlarini birlashtirish bo'ldi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 2022-yilda qabul qilingan BMT Bosh Assambleyasining "Markaziy va Janubiy Osiyo o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni mustahkamlash" maxsus rezolyutsiyasida Markaziy Osiyo va umumiy aholisi qariyb 2 milliard kishi bo'lgan Janubiy Osiyo o'rtasida aloqalarni o'rnatishda Afg'oniston alohida o'rin tutishi e'tirof etiladi.

Toshkentning Afg'oniston bo'yicha joriy siyosatining yana bir muhim xususiyati shundaki, O'zbekiston Afg'onistonga butun Markaziy Osiyoning uzviy, ajralmas qismi sifatida qaraydi.

Hech kimga sir emaski, yangi Markaziy Osiyo jahondagi qudratli davlatlar va yetakchi davlatlarni o'ziga tartidigan mintaqaga aylandi. Bugungi kunda Markaziy Osiyo 10 dan ziyod "Markaziy Osiyo+" formatlari doirasida 40 ga yaqin davlat va ikkita mintaqaviy tashkilot bilan faol

hamkorlik qilmoqda. Hamkorlik salohiyati va imkoniyatlari haqida gapirganda, ta'kidlash joziba, ushbu iqtisodiy makondagi davlatlar hissasiga jahon yalpi ichki mahsulotining 75 foizi to'g'ri keladi va ularda to'rt milliardga yaqin aholi istiqomat qiladi.

O'zbekiston va Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun bu, eng avvalo, iqtisodiyotimizning muhim tarmoqlariga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish manbalari, tovar va xizmatlarimizni ilgari surish uchun yangi bozorlar, shuningdek, ko'p millionli sayyohlar oqimidir.

O'z navbatida, Markaziy Osiyo hamkorlarimiz uchun 80 milliondan ortiq iste'molchiga ega istiqbolli bozor hisoblanadi. Bu yerda jahon neft va gaz zaxiralarining 7 foizi, raqamli va yashil transformatsiya uchun zarur bo'lgan o'ta muhim nodir materiallarning katta zaxiralari to'plangan. Xususan, mintaqada mavjud 10 turdagi o'ta muhim materiallar zaxirasi 5,2 foizdan 38,6 foizgacha bo'lgan miqdorni tashkil etadi.

Markaziy Osiyo jahonda yaxlit va bir butun hudud sifatida tanilmoqda, u o'zining xalqaro nufuzini mustahkamlash uchun yanada ko'p imkoniyatlarga va tashqi dunyo bilan munosabatlarda kattaroq vaznga ega bo'lishi mumkin.



Bu ijobiy o'zgarishlarda Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida ochiqlik va jarayonga daxldorlik yo'lga qat'iy o'tgan O'zbekiston hal qiluvchi rol o'ynamoqda. Bunday yondashuv butun mintaqaga shiddatli kuchi bermoqda, boshqalarga namuna bo'lmoqda.

Markaziy Osiyo raqobatbardosh mehnat resurslari ko'payib borayotgan mintaqaga hamdir. BMT hisob-kitoblariga ko'ra, 2050-yilga borib mintaqa aholisi 100 milliondan oshadi. Shu bilan birga, u eng yosh mintaqalardan biri bo'lib qoladi — aholining o'rtacha yoshi 30 ga yaqin bo'ladi.

Markaziy Osiyo o'z subyektligini mustahkamlab, mohiyatan jahon maydonida mustaqil ishtirokchiga aylanib bo'lganini tan olmaslikning iloji yo'q. Ayni vaqtda mamlakatlarimiz tashqi hamkorlar bilan o'zaro munosabatlarni yo'lga qo'yishda umumiy yoki yaqin pozitsiyadan turib faol harakat qilmoqda.

Markaziy Osiyodagi o'zgarishlar natijalari butun dunyoda yuqori baholanoqda va e'tirof etilmoqda. BMT Bosh kotibining Markaziy Osiyo bo'yicha maxsus vakili, Markaziy Osiyoda preventiv diplomatiya bo'yicha mintaqaviy markaz rahbari Kaxa Imnadze Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining so'nggi

real jarayonlarga aylantirish uchun zarur sur'atni ta'minlamoqda", deb hisoblaydi F.Lukyano.

Xadson instituti (AQSH) eksperti Richard Vaytsning ta'kidlashicha, "Sh.Mirziyoyev Markaziy Osiyoning boshqa davlatlari bilan munosabatlarni yaxshilashda namoyish etgan azm-u shijoat ushbu hamkorlar Toshkentning yangi mintaqaviy yondashuvini kutgan va olqishlaganidan dalolat beradi".

Uning so'zlariga ko'ra, mamlakat Yevroosiyoning qoq markazida, ko'plab "Sharq-G'arb" va "Shimol-Janub" transport yo'laklari orasida joylashgan bo'lib, bu "Toshkentning ko'magi yirik mintaqaviy loyihalar uchun juda muhim va Yevroosiyoning barqarorligi va ravnaqi uchun hayotiy ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi".

Xalqaro ekspertlar Markaziy Osiyo mamlakatlarning mintaqaviy o'ziga xosligini shakllantirish qo'shnilar bilan yaqinlashuvini ilgari surishda muhim o'rin tutishi e'tirof etmoqda. Shanxaydagi Fudan universiteti professori Chjao Xuashemning ta'kidlashicha, "Markaziy Osiyo mamlakatlari mintaqada ichida ham, tashqarisida ham umumiy o'ziga xoslikni tobora ko'proq tan olishmoqda".

Olimning fikricha, "Markaziy Osiyo jahonda yaxlit va bir butun hudud sifatida tanilmoqda, u o'zining xalqaro nufuzini mustahkamlash uchun yanada ko'p imkoniyatlarga va tashqi dunyo bilan munosabatlarda kattaroq vaznga ega bo'lishi mumkin".

Ostona sammitidagi yakkilik Markaziy Osiyoning farovonligi va ravnaqi yo'lida umumiy mas'uliyat va hamjihatlikni qaror toptirishning muhim sharti sifatida Markaziy Osiyo o'ziga xosligini shakllantirishga bo'lgan intilishda ham namoyon bo'ldi. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2023-yil sentabr oyida BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasida so'zlagan nutqida haqli ravishda ta'kidlaganidek, "Ishonchni aytish mumkin, bizning xalqlarimizni mintaqaviy o'ziga xoslikni anglash tuyg'usi birlashtirmoqda va bu tuyg'u tobora kuchayib bermoqda".

Ostona shahrida boshlangan "Markaziy Osiyo beshligi" yetakchilari uchrashuvlarining ikkinchi davrasi 2025-yilda Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari sammitini qabul qiluvchi mamlakat sifatida O'zbekiston zimmasiga keng qamrovli mintaqaviy kooperatsiyani izchil ilgari surish bo'yicha alohida mas'uliyat yuklaydi. Bu nima degani?

BIRINCHIDAN, siyosiy muloqotni yanada chuqurlashtirish. Ochiqlik, teng huquqlilik, hurmat va manfaatlarni hisobga olish tamoyillariga asoslangan siyosiy ishonchni mustahkamlash lozim. Bu borada barcha darajalarda munozam siyosiy muloqotni davom ettirish va yanada rivojlantirish, unga tizimli va ko'p qirrali tus berish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahon iqtisodiyotidagi inqirozli hodisalar va turli kuch markazlarining keskin qarama-qarshiligi sharoitida xavfsizlikni ta'minlash masalalarida sa'y-harakatlarni yaqindan muvofiqlashtirish zarur. Bunday sharoitda O'zbekiston Prezidentining oltinchi MODRMU doirasida ilgari surilgan Mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash konsepsiyasini ishlab chiqish to'g'risidagi tashabbusi muhim ahamiyatga ega. IKKINCHIDAN, iqtisodiy yo'nalishda strategik o'sish va tub o'zgarishni amalga oshirish bizzning ustuvor vazifamiz bo'lishi kerak. Savdo, investitsiya, texnologiya va innovatsiya sohalaridagi hamkorlik o'zaro sherikligimizning bosh maqsadi etib belgilanishi juda muhimdir. Iqtisodiyot o'zaro manfaatli hamkorlikning asosi va harakatlanuvchi kuchiga aylanishi zarur. Biz mintaqamizni iqtisodiy o'sish va investitsion faollikning jahon markazlaridan biriga aylantirish tarafdorimiz. O'zbekiston Prezidenti ta'kidlaganidek, pirovardida "Yagona mintaqaviy bozorni shakllantirish bizzning uzoq muddatli istiqbolga mo'ljallangan strategik maqsadimiz bo'lishi kerak". UCHINCHIDAN, sanoat kooperatsiyasi bo'yicha qo'shma loyihalarni ilgari surish. Bugungi kunda mintaqa mamlakatlari ushbu yo'nalishda hamkorlik qilishga to'liq tayyorligini ko'rsatmoqda. Ostona sammitida O'zbekiston Prezidenti Mintaqani sanoatlashtirish bo'yicha yagona xaritani shakllantirish va vazirlar darajasida Kengashni ishga tushirishni taklif qildi. Chegaradosh hududlarda savdo-logistika va sanoat maqsadlari tarmog'ini rivojlantirish muhimligi ta'kidlandi. TO'RTINCHIDAN, transport-kommunikatsiya salohiyatini yo'yoga chiqarish. Markaziy Osiyoda mintaqaviy transport yo'laklari strategiyasini ishlab chiqish, Markaziy Osiyo transport tizimini barqaror rivojlantirish bo'yicha mintaqaviy dasturni qabul qilish va mintaqada transport-logistika sohasini rivojlantirish bo'yicha hamkorlikni muvofiqlashtirish uchun Markaziy Osiyo mamlakatlarning transport kommunikatsiyalari bo'yicha mintaqaviy kengashini shakllantirish bu sohada hamkorlikni chuqurlashtirishda muhim qadam bo'lishi mumkin. BESHINCHIDAN, energetika sohasidagi hamkorlik. Markaziy Osiyoda umumiy energetika bozorini shakllantirish bo'yicha qo'shma yondashuvlarni ishlab chiqishga obyektiv zarurat mavjud. Bunda energiya resurslarini o'zaro yetkazib berishni ko'paytirish, energetika obyektlarini qurish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini, zamonaviy resurs tejovchi va ekologik toza texnologiyalarni keng joriy etish bo'yicha qo'shma loyihalarni amalga oshirish alohida o'rin tutishi mumkin. OLTINCHIDAN, iqlim o'zgarishiga moslashish va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash.

Mintaqamizda global iqlim o'zgarishi, suv resurslari taqchilligi, cho'llanish va tuproqning tanazzulga uchrashi hamda hosildorlikning pasayishi bilan bog'liq muammolar tobora kuchayib bormoqda.

Markaziy Osiyo mamlakatlari iqlim o'zgarishi oqibatlariga qarshi kurashish uchun, ayniqsa, ekstremal ob-havo hodisalar tez-tez sodir bo'layotgan sharoitda, muvofiqlashtirilgan hamkorlik zarurligi masalasida to'liq anglashuvga kelgan.

O'z navbatida, oziq-ovqat xavfsizligi va oziq-ovqat mahsulotlarini barqaror yetkazib berish masalalari iqlim o'zgarishi oqibatlari va jahon siyosatidagi keskinlikning kuchayishi natijasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetkazib berish tizimidagi uzilishlar sharoitida o'ta muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, qishloq xo'jaligi ekinlarining serhosil navlarini yaratish, sug'orishning yanada oqilona usullarini izlash, agrar sohaga suvni tejaydigan texnologiyalar va innovatsiyalarni joriy etish uchun agrosanoat kooperatsiyasi sohasidagi hamkorlikni kuchaytirish muhim.

YETTINCHIDAN, madaniy-gumanitar aloqalarni mustahkamlash. Madaniyat, fan, ta'lim va turizm sohalaridagi hamkorlikni kengaytirish borasidagi sa'y-harakatlarimizni davom ettirish muhimdir. Markaziy Osiyo mamlakatlarning tobora jipslashib borayotgani mintaqani dunyodagi eng jozibador sayyohlik yo'nalishlaridan biriga aylantirish uchun mislsiz imkoniyatlar yaratmoqda.

Mintaqaviy turizm boshqaruvi yanada rivojlantirish uchun bizza barcha imkoniyatlar mavjud. UNESCOning Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan 1000 dan ziyod obyektlardan 20 dan ortig'i mintaqada joylashgan bo'lib, ushbu makondagi madaniy va tarixiy obyektlarni yanada ommalashtirish uchun ulkan salohiyatni shakllantiradi.

Mazkur ustuvor vazifalarni amalga oshirish barcha darajadagi mintaqaviy hamkorlikni yangi ilmiy asoslangan g'oya va takliflar bilan doimiy ravishda "ozuqlantirish"ni taqozo etadi. Shu munosabat bilan O'zbekiston Prezidenti davlat rahbarlarining navbatdagi sammitida ko'rib chiqilishi mumkin bo'lgan konseptual tavsiya va takliflarni birgalikda ishlab chiqish maqsadida yetakchi tahliliy markazlar va akademik doiralarda ishtirokidagi Markaziy Osiyo ekspert forumining yig'ilishini mamlakatimizda o'tkazishni taklif etdi.

Bu borada Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan ta'sis etilgan noyob ilmiy-tadqiqot tashkiloti — Markaziy Osiyo xalqaro instituti zimmasiga alohida mas'uliyat yuklatildi.

Umuman olganda, 2017-yilda O'zbekistondagi keng ko'lami o'zgarishlar hamda Toshkentning yaxshi qo'shniçilik va hamkorlik bo'yicha innovatsion siyosati natijasida boshlangan Markaziy Osiyoda mintaqaviy yaqinlashuv jarayoni bugungi kunda barqaror va ortga qaytmas tus oldi.

Mamlakatning ochiqlik siyosatiga o'tishi va O'zbekiston Prezidentining tashqi siyosiy doktrinasida e'lon qilingan Markaziy Osiyo ustuvorligi tamoyili hayotga tatbiq etilishi mintaqadagi siyosiy-iqtisodiy jarayonlarning tubdan yangilanishini ta'minladi.

Davlatimiz rahbarining siyosiy irodasi, misli ko'rilgan pragmatizmi, ishonchni mustahkamlash choralari va uzoqni ko'zlagan diplomatiyasi, asosiy davlatlararo va mintaqaviy muammolarni hal qilish uchun oqilona murosaga tayyorlik Markaziy Osiyoda tortishuv va kelishmovchiliklardan o'zaro anglashuv va hamkorlik sari strategik qadamni ta'minladi.

Ushbu inqilobiy yondashuvlarning ikki tomonlama faol muloqotlar va davlat rahbarlarining Maslahat uchrashuvlarida mustahkamlanishi mamlakatlarning tinç, barqaror va izchil rivojlanayotgan hamda farovon Markaziy Osiyoni birgalikda barpo etishga bo'lgan umumiy sodiqligini tasdiqlashga xizmat qildi.

Global falokatlar sharoitida Yevroosiyoning qoq yuragidagi strategik muhim mintaqada davom etayotgan bu tinç va bunyodorona transformatsiya jarayoni ekspertlar muhokamasining mavzusiga aylangan va kelajakda chuqur ilmiy izlanishlarning predmeti bo'ladigan, jahon siyosatining noyob fenomenidir.

Hech shubhasiz, ko'z o'ngimizda shakllanayotgan Yangi Markaziy Osiyoning bosh me'mori mintaqa tarixiga o'z nomini yozib ulgurgan O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevdir. Ostona shahrida bo'lib o'tgan Markaziy Osiyo sammitida O'zbekiston Prezidentiga Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Faxriy nishoni topshirilgani mamlakatimiz yetakchisining mintaqa davlatlari o'rtasida do'stlik, yaxshi qo'shniçilik va o'zaro anglashuvni rivojlantirishga qo'shgan shaxsiy hissasining yana bir e'tirofi bo'ldi.

Kun mavzusi



Bir oilani bilaman. O'ziga tegishli kattagina hovlida istiqomat qiladi. Yaqinda pul zarur bo'lib, ana shu hovlining bir qismini sotmoqchi bo'ldi. Ammo oila a'zolarining hech birida o'sha yer maydoniga egalik huquqini beruvchi hujjat yo'q ekan. Ochiq'i, hayron qoldim. Chunki esimni taniganimdan beri oila shu uyda yashashini va mulk ularga otasidan meros qolganini bilaman. Ma'lum bo'lishicha, ilgari xonadon maydoni kengaytirilib, qo'shimcha yer qo'shib olingan va unga egalik huquqini beruvchi hujjat rasmiylashtirilmagan. Shuni deb oila a'zolari haligacha ovora, biroq hech egalik huquqini o'lolmaydi.

Joriy yil 5-avgustda Prezidentimiz imzolagan "O'zbo'shimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo'lgan huquqlarni e'tirof etish to'g'risida"gi qonun ana shunday minglab, millionlab yurtdoshlarimiz kutayotgan huquqiy asos bo'ldi. Bu ko'plab oilalar hayotiga daxldor masala edi. Dastlabki o'rganishlarga ko'ra, hozir huquqiy hujjati yo'q yoki to'liq bo'lmagan 3 million 800 mingdan ortiq yer uchastkasi mavjud. Ularning har biri o'rta 3-4 nafardan fuqaro va tadbirkorlarga daxldor bo'lsa, bu qonun 10 milliondan ziyod kishining muammosini hal qiladi, degani. Endi ular yillar davomida o'ziga tegishli bo'lib kelgan yer uchastkalari va ularda qurilgan binolarni legallashtirib, ya'ni qonuniylashtirib olishi mumkin.

Ammo jarayon ko'pchilik kutayotganidek tez va birdan amalga oshir qolmaydi. Qonun bilan hujjatsiz yer, bino-inshootlarni qonuniylashtirish tartib-tamoyillari belgilangan. Xo'sh, bu tartiblar qanday? Endi o'zbo'shimchalik bilan egallangan yerni ham qonuniylashtirish mumkinmi?

HUJJATSIZ YER VA UY-JOYNI QONUNIYLASHTIRISH

Fuqarolar qayerga murojaat qilishi kerak?



Kadastr agentligi Metodologiya va uslubiy qo'llab-quvvatlash boshqarmasi boshlig'i Behzod NISHONOV bilan mazkur qonunning mohiyati, hujjatsiz yer va bino-inshootlarni qonuniylashtirish jarayoniga oid dolzarb jihatlar haqida suhbatlashdik.

— Yurtimizda fuqarolarning o'ziga tegishli, ammo hujjatsiz yoki o'zbo'shimchalik bilan o'zlashtirilgan yer va unda qurilgan uy-joylarni rasmiylashtirish eng katta muammolardan biri bo'lib kelgan. Bu hujjatlarning yo'qolish ketgani yoki to'liq emasligi, ushbu yo'nalishda tizimli ish qilinmagani va boshqa ko'plab omillar bilan bog'liq. Eng muhimi, shu vaqtgacha bu borada aniq huquqiy asos mavjud bo'lmagan. Natijada hozir mamlakatimiz aholisining ko'pchiligi hujjatsiz uyda yashayapti. Joylarda mulk hujjatlarini rasmiylashtirish, ya'ni meros olish, kimgadir hadya qilish, boshqa birovga sotish bo'yicha murojaatlar nihoyatda ko'p. Tadbirkorlarning ham bu masalada muammosi yetarlicha. Shu bois, davlatimiz rahbari imzolagan mazkur qonunni tarixiy hujjat, deyaish mumkin.

Qonun loyihasi Prezidentimizning 2023-yil 21-noyabrda yer hisobi va kadastr xizmatlari bo'yicha o'tkazilgan videoselektor yig'ilishidagi topshirig'i asosida ishlab chiqildi. Loyihani tayyorlashda Italiya, Bolgariya, Xorvatiya, Chexiya va boshqa davlatlarning tajribasi inobatga olindi. Shuningdek, loyihani

tayyorlashda BMT tomonidan ishlab chiqilgan yo'riqnomalar o'rganildi.

Yangi qonun 6 bob, 35 moddadan iborat bo'lib, unda 8 toifadagi obyektlar uchun mulk huquqini rasmiylashtirishga ruxsat berildi. Ular 2018-yil 1-mayga qadar o'zbo'shimchalik bilan egallangan yer uchastkasi hamda unda qurilgan bino va inshootlar, maydonan ortiqcha egallangan yer uchastkasi hamda qurilgan uy-joylar, "bir martalik aksiya" doirasida huquqlarni e'tirof etish oxiriga yetmagan mulklar va hokazoni o'z ichiga oladi. Oliy sud va Adliya vazirligi bilan birgalikda juda ko'p holat umumlashtirilib, asosiy sakkizta toifa belgilab olindi.

Dastlabki o'rganishlarga ko'ra, hozir "bir martalik aksiya" doirasida hujjatlari rasmiylashtirilishi boshlangan, lekin yakuniga yetmagan 60 mingdan ziyod holat bor. Shuningdek, kichik sanoat zonalarida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlarining 1200 dan ortig'ida hujjatsiz ishlar tugatilgan. Tumanlarda hokim qarori bilan uy-joyga mulk huquqi e'tirof etilib, yer uchastkasiga bo'lgan huquq belgilanmay qolgan ko'plab holatlar mavjud. Qonunda ana shularning barchasini hujjatsizlashtirish nazarda tutilgan.

Grafikda muayyan hudud yoki mahallaga qachon borilishi belgilangan bo'lsa, faqat o'sha vaqtda boriladi. Alohida ariza berilgan taqdirda ham egalik huquqini e'tirof etish uchun hududga o'zbo'shimchalik bilan borilmaydi. Qonun 2028-yil 1-yanvargacha qadar amal qiladi va hujjatsizlashtirish amaliyoti uch yildan ziyod vaqt davomida to'liq amalga oshirilishi belgilangan.

Qonundagi "o'zbo'shimchalik bilan egallangan", degan jumla odamlarda katta qiziqish va savol tug'diraypti. Noqonuniy egallab olingan yer yoki uy-joyni ham endi qonuniylashtirib, bemaol o'zimiznikilib olsak bo'lar ekan, degan noto'g'ri tushuncha paydo bo'lmoqda. Aslida, "o'zbo'shimchalik bilan egallangan", degan jumla faqat "noqonuniy" ma'nosini anglatmaydi. Bu borada doimiy muhokamalar ham bo'ldi. Gap shundaki, qonunchilikda hujjatlari saqlab qolinmagan yer yoki bino-inshootlarga nisbatan ham "o'zbo'shimchalik bilan egallangan", degan ta'rif

qo'llanadi. Masalan, o'tgan asrda ajratilgan yerlarning ko'pi shunday holatda, ya'ni muayyan sababga ko'ra, hujjatlar saqlanmagan. Hozir yurtimizdagi 2 million 400 mingdan ortiq uy-joy shunday holatda. Ularning barchasi tegishli tartibda o'rganilib, qonuniy yechimlari beriladi.

— **Qonun e'lon qilingan kundan boshlab, hududlarda odamlar Kadastr**

davlat tashkilotlari xodimlarining o'zi joylarga chiqib, hujjatsiz yer uchastkalari va uy-joylarni qonuniylashtirish bilan shug'ullanadi. Aholining bu masalada biror joyga murojaat qilishi yoki ariza berishiga zarurat yo'q. Hammasi tartib asosida, belgilangan muddatda bajariladi.

Masalan, grafikda muayyan hudud yoki mahallaga qachon borilishi belgilangan bo'lsa,



faqat o'sha vaqtda boriladi. Alohida ariza berilgan taqdirda ham egalik huquqini e'tirof etish uchun hududga o'zbo'shimchalik bilan borilmaydi. Qonun 2028-yil 1-yanvargacha qadar amal qiladi va hujjatsizlashtirish amaliyoti uch yildan ziyod vaqt davomida to'liq amalga oshirilishi belgilangan.

Biroq bu barcha hujjatsiz mulkka egalik huquqi e'tirof etiladi, degani emas. Bu bo'yicha qonunda asosiy shartlar va talablar ham aniq belgilangan. Masalan, yer boshqa shaxsga ajratilmagan yoki auksionga chiqarilmagan bo'lishi, yer bo'yicha nizo bo'lmasligi, bosh reja talablariga zid emasligi va boshqa omillar hisobga olinadi.

Qolaversa, bu bitta shaxs yoki tashkilotga bog'liq jarayon emas. Agar biror fuqaro yoki tadbirkorning oldiga kimdir kelib, egalik huquqini rasmiylashtirishga yordam beraman, desa, u firibgar bo'ladi. Boisi, buning sira iloji yo'q. Qonunda rasmiylashtirishga mas'ul tashkilotlar hamda jarayon ketma-ketligi ko'rsatib o'tilgan. Ularning har biri o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, orada qonun buzilishi,

tanish-bilishchilik holatlariga yo'l qo'ylmaydi. Barchasi shaffof amalga oshirilishi ta'minlanadi.

Jumladan, o'zbo'shimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan bino va inshootlarga taalluqli ma'lumotlar hamda hujjatlarni kelishish Kadastr agentligining avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali bajariladi. Bu tizimga 15 ta vakolatli tashkilot ham tegishli ma'lumotlarni kiritadi. Natijalar mahalla burchaklari, Kadastr agentligi sayti orqali jamoatchilikka ma'lum qilinadi. To'plangan hujjatlar to'liqligi va qonuniyligi viloyat adliya boshqarmasi tomonidan tekshirib chiqiladi. Ijoiy xulosa berilgan fuqarolarga SMS xabar yuboriladi. U asosida bir martalik to'lov amalga oshirilgan obyektga Xalq deputatlari viloyat kengashi qarori bilan huquqlar e'tirof etiladi.

Prokuratura, ichki ishlar, agrospektsiya, ekologiya, kadastr organlari qonunni amalga oshirishda davlat nazoratini o'rnatadi. Shuningdek, qonunda jamoatchilik nazoratiga alohida e'tibor qaratilgan. Xalq deputatlari tuman kengashlari qarori bilan har mahallada jamoatchilik guruhi tashkil etiladi. Bu guruhga mahalla joylashgan okrugdan saylangan tuman kengashi deputati, mahalla raisi va faol fuqarolar kiritiladi. Ko'rilayotgan ishda mulkdorlar o'rnatida nizo bo'lsa ham ish keyingi bosqichga o'tmaydi.

Bu amaliyot Qoraqalpog'istonda allaqachon boshlangan. Davlatimiz rahbarining 2023-yil 28-iyuldagi farmoni bilan faqat ushbu hududdagi hujjatsiz uy-joylar va ular joylashgan yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi qarori bilan e'tirof etishga ruxsat berilgan edi. Shundan so'ng barcha tuman va shaharlarda ishchi guruhlar tuzilib, Qoraqalpog'istonda huquqni belgilovchi hujjatsiz qurilgan 43 ming 432 ta uy-joy birmabir o'rganib chiqildi. Uylarning joylashgan o'rni, holati va qurilgan vaqti yer hisobi hamda kosmik suratlar tahlil qilish asosida tekshirildi. Barchasining yakunida ijoiy xulosaga kelingan 27 ming 590 ta uy-joyga mulk huquqi, ular joylashgan yer uchastkalariga esa ijara huquqi e'tirof etildi.

Ushbu xalqparvar siyosat shuncha xonadonda yashovchi 100 mingdan ortiq fuqaroning hayotiga ijoiy ta'sir ko'rsatdi. Ularda o'z uy-joyini qonuniy rasmiylashtirib olish, boshqa shaxsga sotish, oila a'zolarini doimiy ro'yxatga qo'yish huquqi paydo bo'ldi. Shuningdek, mulkdorlar endi bu uylarni ta'mirlash yoki qo'shimcha qurilish qilish uchun imtiyozli kredit olishi, uy-joy jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yilgan hollarda, qonunga muvofiq kompensatsiya talab qilishi mumkin bo'ldi.

Shu jihatdan ushbu qonunni xususiy mulk kafolatini ta'minlashdagi eng katta islohotlardan biri, deyaish mumkin. Uni yurtimizning barcha hududida joriy etish orqali millionlab yurtdoshlarimizni uzoq yillardan buyon qiyab kelayotgan muammoga yechim beriladi. Jarayonda asosiy e'tibor, albatta, adolat va shaffoflikni ta'minlashga qaratiladi.

"Yangi O'zbekiston" muxbiri Iroda TOSHMATOVA suhbatlashdi.

Taraqqiyot odimlari



Dilfuza JO'RAYEVA,
Surxondaryo viloyat davlat arxiv direktori

Hududda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznes subyektlarining hisssasi tobora ortib bormoqda. Bu yurtimizda soha vakillari faoliyati har tomonlama qo'llab-quvvatlanayotgani, ularga ko'plab imkoniyat va imtiyozlar yaratib berilayotgani samarasidir.

Joriy yilning birinchi yarim yilligida yalpi hududiy mahsulot qiymati 21,4 trillion so'mni yoki 105,5 foizni tashkil etdi. Bunda sanoat mahsulotlari hajmi 4,3 trillion, xizmatlar ko'rsatish 8,8 trillion, qishloq xo'jaligi 16,8 trillion so'mni tashkil etganining o'ziyoq barcha sohadagi dasturlar, keng ko'lamli islohotlar samarasidan so'zlaydi.

Soliq va boshqa majburiy to'lovlardan byudjetga 1 trillion 504,1 milliard so'm undirilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 122,2 foiz o'sish ta'minlandi. Buni sohadagi ishlar tizimli tashkil etilayotgani, mutasaddi rahbarlar hamda jamoat vakillarining uzoqni ko'zlab ish tutayotgani natijasi, deyaish mumkin.

Ulkan bunyodkorlik ishlari barobarida hudud infratuzilmasini yaxshilash, aholi bandligini ta'minlash, shuningdek,

SURXONDARYO RIVOJI VA ISTIQBOLI

amalga oshirilayotgan loyihalarda o'z aksini topmoqda

Surxondaryo ufqlarga tutash kengliklariyu baland tog'lari, ko'rkam va serhosil bog'-rog'lari-yu ekinzorlari bilan ma'lumu mashhur. Istiqloq nuridan qalb shuuri ravshan tortgan voha odamlarining qadami bugun yanada dadil, bunyodkorlik ishlari salmoqli, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Viloyat iqtisodiy imkoniyati, tabiiy boyliklari bilan mamlakatimiz taraqqiyotida alohida o'ringa ega.

fuqarolarning farovon turmush kechirishiga munosib hissa qo'shish ham har bir rahbarning muhim vazifalaridan.

Viloyatda mehnatga layoqatli fuqarolar 1 million 489,6 ming, iqtisodiy faollar 1 million 91,8 ming, band odamlar soni 1 million 11,2 ming nafarni tashkil etadi. Shundan 372 ming fuqaro rasmiy sektorda, 495,6 mingi norasmiy sektorda ish bilan band, 143,6 ming kishi xorijga ishlash uchun ketgan.

Joriy yil yanvar-iyun oylarida 183,2 mingta yangi ish o'rni ochilishi belgilangan bo'lib, amalda bu ko'rsatkich 243,3 mingtani tashkil etdi. Buni yo'nalishlar bo'yicha taqsimlasak, investitsiyalar, mahalliy sanoatni rivojlantirish yo'nalishida 1415 ta, xizmat ko'rsatish va tadbirkorlikni rivojlantirish yo'nalishida 58 ming 691 ta, qishloq xo'jaligi yo'nalishida 177 ming 980 ta, qurilish yo'nalishida 5181 ta yangi ish o'rni yaratildi.

"Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish" dasturlari doirasida 15 ming 142 fuqaro va tadbirkorlik subyektiga 236,6 milliard so'm, "Biznesga birinchi qadam" dasturi bo'yicha o'zini o'zi band qilish faoliyatini boshlamog'chi bo'lgan ishsiz 7360 kishiga 68,5 milliard so'm kredit ajratildi.

Joriy yil 1-iyul holatiga ko'ra, muammoli kreditlarning 1 trillion 18 milliard so'm kamayishiga erishildi. Tadbirkorlikni

rivojlantirish, "Sayxunobod tajribasi" misolida aholi daromadini oshirish, shuningdek, bank mijozlari bilan o'tkazilgan uchrashuvlarda ko'tarilgan muammolarni hal etish orqali jami 8,9 mingta ish o'rni tashkil etildi.

Prezidentimizning tegishli qaroriga asosan, 3505 tashabbuskorga 280,9 milliard so'm kredit ajratilib, shu orqali 8000 ta ish o'rni yaratildi. Hokim yordamchilari tomonidan jami qiymati 230,8 milliard so'mlik 1,2 mingta mikroloyiha ishga

tushirilishi hisobiga 3,7 ming kishi ishli bo'ldi.

Bundan tashqari, hokim yordamchilari tomonidan berilgan ijoiy tavsiyalar asosida jami 1463 fuqaroga yengil konstruksiyali issiqxonalar qurish, asbob-uskuna va boshqa turdagi mehnat qurollari xarid qilish uchun 6192 million so'mlik subsidiya ajratildi.

Aholi bandligini ta'minlash maqsadida dehqon xo'jaliklari tashkil etish uchun jami 1843 gektar qishloq xo'jaligi maydoni 1981 lotga bo'linib, "E-auksion" savdo platformasi orqali ochiq elektron tanlovga qo'yildi. Auktsion natijasiga ko'ra, 238 gektar yer 275 fuqaroga ajratib berildi.

Hudud rivoji, gullab yashnashi, eng avvalo, fuqarolarning ish bilan bandligi, jamiyatda o'z o'rninga ega bo'lib, muayyan

sohaning etagidan tutib faol fuqarolik pozitsiyasi bilan yashashida ham ko'rinadi. Ayni shu maqsadda joriy yil yakunigacha 377,7 mingta yangi ish o'rni yaratilishi belgilangan. Amalda bu ko'rsatkich 411,2 mingtaga yetishi kutilaypti.

Bugun Surxondaryoning zamonaviy qiyo-fasi, nufuzini dunyoga tanitishda turizmning munosib o'rni bor, albatta. Sababi, hududda sohani rivojlantirish uchun keragidan ortiq imkoniyat mavjud. Faqatgina bundan unumli foydalanish, yangidan yangi loyihalarni hayotga tatbiq etish, turizm obyektlari infratuzilmasini yaxshilash va sayyohlik o'choqlarini yanada sayqallash lozim. Ayni shu ma'noda bugun vohada turizmga iqtisodiyotni rivojlantirishning yetakchi sohalardan biri sifatida qaralmoqda.

Boysun tumani Omonxona hududida tibbiyot turizmi va mehmon uylari, Sariosiyo tumani Sangardak massivida ekoturizm, mehmon uylari, zamonaviy ziyorat va dam olish turizmi yo'nalishi bo'yicha "Sigma Toshkent" MCHJ tomonidan master-reja ishlab chiqildi. Omonxona massivi bo'yicha tayyorlangan reja asosan, tadbirkorlik subyektlari bilan birgalikda qilingan ishlar natijasida 4 ta zamonaviy mehmonxona va 1 ta sog'lomlashtirish markazi barpo etish bo'yicha investitsiya loyihasi tayyorlandi.

Ushbu 5 loyihaning jami qiymati 45,8 milliard so'm, shundan 17,3 milliard so'mi tadbirkorlar mablag'i. "Muktadir Iktisos ta'mir" korxonasi tomonidan qiymati 12 milliard so'mlik 50 o'rinni mehmonxona qurish bo'yicha ishlab boshlangan. "Kamari Aziz" MCHJ tomonidan qiymati 10,3 milliard so'mlik 100 o'rinni, shuningdek, "Polvonlar

dam olish maskani" MCHJ tomonidan qiymati 10,5 milliard so'mlik 100 o'rinni mehmonxona qurish bo'yicha loyiha smeta hujjatlari tayyorlanmoqda.

"Omonxona davolash maskani" MCHJ tomonidan sog'lomlashtirish markazi qurish bo'yicha loyiha smeta hujjatlari ishlab chiqilyapti. 2023-yilda Sangardak massivida 7 ta mehmon uyi hamda qiymati 120 milliard so'mlik 200 o'rinni sanatoriya ishga tushirildi.

Prezidentimizning 2023-yil 16-17-noyabr kunlari Surxondaryo viloyatiga tashrif chog'ida vohadan o'tgan tranzit imkoniyati yuqori xalqaro magistral bo'yida 5 ta xizmat ko'rsatish markazi tashkil qilish topshirig'i berilgan edi. Ushbu topshiriqqa binoan Boysun, Bandixon, Oltinsoy va Sherobod tumanlaridan o'tgan xalqaro ahamiyatli avtomobil yo'li bo'yidan 94,5 gektar maydon tanlangan va ishlar boshlab yuborilgan.

Vohadagi keng ko'lamli ishlar bilan bir qatorda joylarda "Sayxunobod tajribasi"ni joriy etish, aholi bandligini ta'minlash, infratuzilmani yaxshilash borasida ham salmoqli ishlar qilinayotir. Amalga oshirilayotgan har bir loyiha, hayotga tatbiq etilayotgan har bir dastur bevosita mutasaddilarning diqqat markazida ekanini ham ta'kidlash joiz.

Qolaversa, vohaning qadimiy va boy tarixi, qadriyatlari, hunarmandchiligi-yu aholining mirishkorligi, tanti odamlarning tinib-tinchimasdan eng sara qishloq xo'jaligi mahsulotlarini jahon bozoriga tortiq etayotgani, yangidan yangi qadamjolar, noyob topilmalar, sayyohlik yo'nalishidagi loyihalar — ularning hammasi Surxondaryoning yangi qiyofasini, jahon maydonidagi yangicha maqomini belgilab berayotir.



“O‘zbekiston — 2030” strategiyasi

Sil kasalligining oldini olish va uni to‘liq davolash mumkinligiga qaramay, u dunyodagi eng ko‘p o‘lim sabablaridan biri bo‘lib qolmoqda. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma‘lumotiga ko‘ra, har yili 10 milliondan ortiq aholi sil bilan kasallanadi. Ayniqsa, silning doriga chidamli turlari bilan kasallanish holatlari oshib borishi e‘tiborni yanada kuchaytirishni taqozo etmoqda.



SIL KASALLIGINI KESKIN KAMAYTIRISH VAZIFASI QO‘YILGAN

Bu qanchalik uddalanmoqda?



So‘nggi paytlarda mamlakatimiz sil kasalligining oldini olish, erta tashxislash va davolashda sezilarli natijalarga erishib, uni bartaraf etish borasida qat‘iy iroda namoyon etayotir.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasida aholining o‘rtacha umr davomiyligini oshirish, jumladan, sil kasalligiga chalinish darajasini 100 ming aholiga nisbatan minimal darajagacha keskin kamaytirish vazifasi qo‘yilgan. Bu vazifa qanchalik uddalanmoqda?

Respublika ixtisoslashtirilgan ftiziatriya va pulmonologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi direktori, respublika bosh ftiziatri, tibbiyot fanlari doktori **Nargiza PARPIYEVA** bilan suhbatimiz shu haqda kechdi.

— Prezidentimizning 2019-yil 13-fevraldagi “Ixtisoslashtirilgan ftiziatriya va pulmonologiya yordami ko‘rsatish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori sohadagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqdi, — deydi Nargiza Parpiyeva. — Bu yo‘nalishlarning bir-biriga bog‘liqligini oshirish maqsadida hududlardagi ftiziatriya bosh muassasalari ftiziatriya va pulmonologiya markazlariga aylantirildi. Silning doriga chidamli turi bilan kasallanganlarga ko‘rsatiladigan ixtisoslashtirilgan tibbiy yordamni takomillashtirish maqsadida davolanishning 24 oylik turi o‘miga qisqartirilgan 9 va 6 oylik davolash usullari amaliyotga to‘la tatbiq etildi. Bu jarayon videonazorat yordamida olib boriladigan bo‘ladi. 2023-yilning o‘zida silning doriga chidamli turi bilan kasallangan 700 nafardan ortiq bemor ushbu davolash usuli bilan qamrab olindi. Silga qarshi dori-darmon 2016-yilga qadar xalqaro tashkilotlar tomonidan keltirilgan bo‘lsa, endi ularning xaridi davlat byudjetidan moliyalashtirilmoqda. Prezidentimizning 2023-yil 20-yanvardagi “2023-2026-yillarda ftiziatriya va pulmonologiya xizmatini yanada rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori bilan aholi orasida sil kasalligining rivojlanishiga moyilligi bo‘lgan xavfli guruh qatlamlari aniqlandi. Ularda profilaktik davolash usullari qo‘llanila boshlandi.

Hududlardagi markaziy maslahat poliklinikalari tarkibidagi ftiziatriya bo‘limlari ftiziopulmonologiya bo‘limlariga aylantirildi va asosiy vazifalari belgilab berildi. Ushbu xastalikka qarshi kurashishga mas‘ul tibbiyot muassasalari infeksiya nazorat qoidalariga binoan to‘liq rekonstruksiya qilib, ilg‘or tibbiy asbob-uskunalar bilan jihozlandi. “O‘pka salomatligi” mobil brigadalari tashkil etildi. Ular profilaktik ko‘rik uchun zarur bo‘lgan tashxislash jihozlari, jumladan, zamonaviy ultraportativ rentgen jihozlari bilan ta‘minlandi.

2023-yilga kelib, sildan kasallanish ko‘rsatkichi 2011-yildagiga nisbatan 45 foiz, o‘lim ko‘rsatkichi 87 foiz kamaydi. Hukumat qarorlari bajarilishi va ushbu tadbirlar natijalari tahlihi bo‘yicha O‘zbekistonning ftiziatriya yo‘nalishidagi faoliyati JSST tomonidan yuqori baholandi va faxrlilik bilan o‘ringa loyiq ko‘rildi. Shuningdek, BMT Bosh Assambleyasining 2023-yilda AQSHda bo‘lib o‘tgan sil kasalligi bo‘yicha oliy darajadagi majlisiga Polsha bilan hamkorlikda O‘zbekiston hamraislik qilgani tarixiy voqeaqa aylandi.

Joriy yilning 24-26-iyun kunlari Toshkentda “BMTning sil kasalligi bo‘yicha oliy darajadagi uchrashuvi bo‘yicha majburiyatlarini bajarish: Yevropa va Markaziy Osiyo mamlakatlari vakillari ishtirokidagi mintaqaviy muloqot” mavzusida o‘tkazilgan xalqaro anjumanda sil kasalligiga qarshi kurashish samaradorligini oshirish bo‘yicha istiqboldagi rejalar atroficha muhokama qilindi.

— Kasallikni samarali davolashda o‘pka patologiyasining klinikolik belgilarini erta aniqlash katta ahamiyatga ega, shunday emasmi?

— Buning uchun markaz mutaxassislari tomonidan skrining anketalar dasturi ishlab chiqildi va ulami rasmiylashtirish, o‘pka kasalliklarining erta namoyon bo‘ladigan klinik belgilarini aniqlashga yo‘naltirilgan o‘quv seminarlari 700 dan ortiq shifokor va hamshira qatnashdi. Skrining anketalar amaliyotga tatbiq etilishi, avvalo, sabiy odatlar mavjud bo‘lgan shaxslarda o‘pka kasalliklari rivojlanishining oldini oladi hamda kasalliklarni erta bosqichda aniqlashga imkon yaratadi. Natijada kasallik kam mablag‘ talab qiladigan bosqichda faol davolanadi, shuningdek, kasallik asoratli kechishining oldi olinadi. 2024-yilning o‘tgan 6 oyi davomida “O‘pka salomatligi” brigadalari yordamida 60 mingdan ziyod aholi tibbiy ko‘rikdan o‘tkazilgani ham ana shu maqsadga qaratilgan.

— Latent sil infeksiyaga skrining tekshiruvlari soni 1 millonitaga oshirilishi ko‘zda tutilgan edi. Bu jarayon qanday kechmoqda?




— Latent sil infeksiyasi kasallik emas. U ushbu holatlarda organizmda mavjud bo‘lgan sil mikobakteriyasi immunodiagnostikular yordamida aniqlanadi, ammo kasallikning klinik belgilari namoyon bo‘lmaydi, laboratoriya usullari bilan tekshiruvlar ham manfiy natija beradi. Faqatgina immunodiagnostikular (tuberkulin, diaskin test va kvantiferon) organizmda sil mikobakteriyasi mavjudligini ko‘rsatib beradi. 2024-yilning o‘tgan vaqti davomida latent infeksiya aniqlangan barcha shaxslar profilaktik davolash bilan 100 foiz qamrab olindi.

— Astma va surunkali obstruktiv o‘pka kasalliklari maktablarining faoliyati bugun o‘z

ichiga nimalarni olyapti? Bu maktablarning kimga qanday yordami tegyapti?

— Barcha tumanlardagi markaziy poliklinikalar huzurida “Astma va surunkali obstruktiv o‘pka kasalliklari” maktablari faoliyat ko‘rsatyapti. Ularning asosiy vazifasi bronxial astma, obstruktiv bronxit va o‘pkaning boshqa surunkali kasalliklariga chalingan insonlarga kasallik xurujida davolash yordam ko‘rsatish, qo‘zg‘alish bosqichining rivojlanish omillari va ularning oldini olish uchun amalga oshirilishi lozim bo‘lgan tadbirlar to‘g‘risida ma‘lumot berishdir. Shuningdek, nafas siqish xurujida vaqtida birgalikda nafas olishni osonlashtirish usullarini o‘rgatishdan iborat. Kasallikning qo‘zg‘alishini keltirib chiqaradigan omillardan saqlanish o‘rgatildi. Zero, pulmonologik kasallikka chalinganlarning xastalikka nisbatan shaxsiy munosabati ko‘p narsani belgilaydi. Tuzalishning bosh muhim omillaridan biri ham shu aslida.

Shuningdek, kasallik rivojlanish mexanizmi, sabablari, uni nazorat qilish usullari haqida bemorning bilim darajasini oshirish ham e‘tibor markazimizda. Dispanser nazoratida kuzatilayotgan, o‘pka kasalliklariga chalingan bemorlar bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri muloqotlar o‘tkaziladi va ularga kasalliklarning ilk belgilari namoyon bo‘lgan taqdirda uy sharoitida birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish usullari, kasallikni qo‘zg‘alish davriga olib keluvchi omillar va oldini olish usullari to‘g‘risida tushuntirish beriladi. Markazimiz xodimlari tomonidan barcha viloyat oilaviy shifokorlari va patronaj hamshiralari orasida, shuningdek, o‘pka kasalliklari bilan og‘rikan bemorlarni jalb qilgan holda mamlakatimizda keng tarqalgan respirator kasalliklar sabablari,



— Sil kasalligi bo‘yicha milliy elektron reyestrni yuritish uchun Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti tomonidan tavsiya qilingan DHIS 2 TB Tracker elektron tizimi tanlangan. Mazkur elektron platforma sil bilan kasallangan shaxslarning doimiy nazoratini ta‘minlash, o‘z vaqtida dispanser nazoratiga olish, maqsadli davolash va sil kasalligi bo‘yicha epidemiologik holatni muntazam tahlil qilish borish maqsadida qo‘llaniladigan, Oslo universiteti tomonidan ishlab chiqilgan ochiq kodli dasturdir.

Oso universiteti ekspertlar guruhi va barcha manfaatdor tashkilotlar bilan birgalikda bemorlarning milliy elektron reyestrini yuritish tizimi respublikamizning 4 hududida qisman (pilot shaklida) ishga tushirildi.

Joriy yilning iyun oyida tizim Toshkent shahri va viloyati, Sirdaryo va Farg‘onada sinovdan o‘tkazildi. Yil oxirigacha barcha hududlarda tizimni yanada kengaytirish rejalashtirilgan.

— Bu ishlar aholining o‘rtacha umr davomiyligini oshirishda qanday o‘rin tutmoqda?

— O‘zbekistonda aholining o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligini oshirishda sil va o‘pka kasalliklarini davolash va oldini olish borasidagi ishlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Aholi salomatligini mustahkamlash va yuqumli kasalliklarga qarshi kurashishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar dasturi qabul qilingani ham buning yaqqol dalilidir.

Erta aniqlash va diagnostika: molekulyar testlar va sun‘iy intellekt dasturli ultraportativ rentgen uskunasi kabi zamonaviy diagnostika usullaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish sil kasalligini erta bosqichda aniqlash imkonini beradi, bu esa davolash samaradorligini oshiradi va kasallikning tarqalish xavfini kamaytiradi.

Kasallikning oldini olish va davolash: dastur yashirin (latent) silga chalingan odamlarni profilaktik davolashni, shuningdek, faol sil kasalligi bilan og‘rikan bemorlarni davolashning qulayligi va sifatini ta‘minlashni o‘z ichiga oladi. Bu kasallikning og‘ir shakllari rivojlanishining oldini olishga va o‘limni kamaytirishga yordam beradi.

Ta‘lim va xabardorlik: axborot kampaniyalari va trening dasturlarini o‘tkazish sil va boshqa o‘pka kasalliklari haqida xabardorlikni oshiradi, tibbiy yordamga erta murojaat qilish va profilaktika choralariga rioya qilishga ko‘mak beradi.

Dasturning muhim qismi yashash va mehnat sharoitlarini, jumladan, bino ichidagi ventilyatsiyani yaxshilash, havo ifloslanishini kamaytirish, immuniteni mustahkamlash va ovqatlanish sifatini oshirishga qaratilgan.

Bu chora-tadbirlar sil va o‘pka kasalliklariga chalinish va o‘lim darajasini pasaytirish, o‘z navbatida, O‘zbekistonda aholining o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligini oshirishga xizmat qilmoqda.

“Yangi O‘zbekiston” muxbiri Risolat MADIYEVA suhbatlashdi.

Zamon bilan hamnafas

INNOVATSIYA SHUNCHAKI G‘OYA EMAS

IQTISODIYOTIMIZNI O‘ZGARTIRA OLADIGAN REAL IMKONIYATDIR

Yangi mahsulot, yangi texnologiyalarga asoslangan va ilgari amaliyotga tatbiq etilmagan noyob g‘oyani ilgari surish, yaratish, mahsulotga aylantirish, uni yanada kengaytirish, bozorga olib kirish o‘z-o‘zidan bo‘lmaydi. To‘liq biznesga aylantirish uchun sarmoyaga muhtoj bo‘lgan bu vaqtinchalik tuzilma startap deyiladi. Bugun mazkur atama nafaqat axborot texnologiyalari, balki ijtimoiy hayotning barcha sohasida qo‘llanilmoqda. Sog‘liqni saqlash, ta‘lim, telekommunikatsiya, media loyihalari, moliyaviy xizmatlar va qator boshqa yo‘nalishlarda amalga oshirilayotgan startap loyihalar allaqachon o‘z samarasini berayotir.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturida yoshlarning innovatsion faoliyat, tadqiqot natijalarini amaliyotga keng joriy etish, ularning ilm-fan, ta‘lim va innovatsiya bilan shug‘ullanishlari uchun sharoitlar yaratish vazifasi keltirilgan.

Yurtimizda yoshlar tomonidan berilayotgan har qanday g‘oya va salohiyatli yangilik e‘tibordan chetda emas. Ularning iqtisodiyotimiz uchun naf keltiradigan ishlanmalari qo‘llab-quvvatlab kelinyotir. Buning uchun Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzurida bir qator

tizim ishlab turibdi. Innovatsion rivojlanish agentligi, Innovatsiyalarni joriy qilish va texnologiyalar transferi milliy ofisi, Ilm-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi, Ilg‘or texnologiyalar markazi, Yoshlar texnoparklari, Yoshlar akademiyasi kabi tuzilmalarning o‘z vazifalari va funksiyalari mavjud. Bularning bari startaplarni tijoratlashtirish uchun investitsiyalarni jalb etish, moliyalash, innovatsion g‘oyalarni, ishlanmalar va texnologiyalarni transfer qilish, innovatsion ko‘rgazmalar tashkil etish singari vazifalarni amalga oshirib kelmoqda.



Ammo yoshlar o‘rtasida startap madaniyatini shakllantirish, yangi ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etish borasidagi ishlarda oqsashlar borligini inkor eta olmaymiz.

Innovatsiya va texnologiyalar sohasidagi yosh iste‘dodlarni rag‘batlantirish, ularning ilg‘or g‘oyalarni amalga oshirish va jahon bozorida raqobatbardoshlikni ta‘minlash

maqsadida Ilmiy-texnik axborot markazi tomonidan o‘tkazilgan “Innovate & Launch: Startup Workshop” forumi startap ekotizimini qo‘llab-quvvatlash, rivojlantirishga qaratilib, innovatsiyalar sohasida intiluvchan yoshlar, tadbirkorlar, investor va ekspertlar o‘rtasida tajriba hamda bilim almashish uchun maydonga aylandi.

Yangilik yaratish va uni amaliyotga kiritish istagidagi yoshlarga startaplarni yo‘lga qo‘yish va rivojlantirish borasida zarur bilim va ko‘nikma berildi. Yangi g‘oyalarni izlash, strategik rejalashtirish, sarmoya jalb qilish va xalqaro bozorlarga chiqish kabi mavzularda so‘z yuritildi.

— Yoshlar tomonidan tahririyatimizga “Startap o‘zi nima, qanday moliyalashtirilishi kerak, uni qanday yo‘lga qo‘yish mumkinligi haqida ko‘plab savollar keladi, — deydi “Innovator” jurnali bosh muharriri Sevara Abdullayeva. — Ko‘pchilikda g‘oya bor, lekin uni amalga oshirish uchun yetarli ko‘nikma va tajriba yo‘q. Bu sohada mukammal bilimga ega mutaxassislar kam. Yoshlarga yangi g‘oya va loyihalarini yo‘lga qo‘yishga ko‘maklashish maqsadida sohada ma‘lum bir yutuqlarga erishgan malakali mutaxassislar taklif etdik. Uchrashuvda

startapni yo‘lga qo‘yish, moliyalashtirish uchun rasmiy hujjat tayyorlash tartibi, o‘z g‘oyasini yuzaga chiqarishda zarur bo‘ladigan ko‘nikmalar, startaplarni moliyaviy rag‘batlantiradigan yangi tashkilotlar, kompaniyalar haqida ma‘lumot berildi.

Kichik biznes startaplari ko‘pincha katta investitsiya talab qilmaydigan kichik kompaniya va jamoalardan iborat bo‘ladi. Sotib olinadigan startaplar esa dasturiy ta‘minot va texnologiyalar sohasidagi loyihalardir.

Rivojlanish bosqichlari qayerdan boshlanadi? G‘oya o‘ylab topilgan va konsepsiya ishlab chiqilgan paytdan boshlab, asoschi allaqachon dastlabki bosqichda bo‘ladi. Keyingilariga o‘tish odatda loyihaning aniq yutuqlari bilan belgilanadi.

— Biznes g‘oyasini ishga tushirish investitsiya talab qiladi. Shu bois, venchur fondlari, rivojlanishning dastlabki bosqichida loyihani moliyaviy qo‘llab-quvvatlaydigan xususiy tadbirkor yoki boshqaruv tajribasiga ega investorlarga murojaat qilinadi. Startap o‘zining birinchi daromadini bir necha yil ichida ko‘rishi mumkin, chunki yangi mahsulotni yaratish, bozorga chiqarish va uni kengaytirish vaqt talab etadi, — deydi Toshkent davlat agrar universiteti talabasi Madina Bosimova. — Men uchrashuv davomida ana shu murakkab jarayon va jozibali natijaga erishish yo‘llari haqida zarur bilimni oldim.

Yoshlarning tahliliy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, ularni ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatga keng jalb etish, iqtidorli, tashabbuskor yigit-qizlarning intellektual salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoit yaratish, startap loyihalarini rivojlantirish va ularni amalga oshirish uchun yagona maydon tashkil etish mamlakat innovatsion salohiyatini oshirishi barobarida zamonaviy talablarga javob beradigan malakali kadrlarni tayyorlashi bilan ham ahamiyatlidir.

Risolat XAITQULOVA, jurnalist



SAN'AT ESTAFETASI DAVOM ETADI

Zomindan keyingi manzil — Samarqand

Yurtimiz madaniy, jumladan, milliy musiqiy merosga qanchalik boy bo'lsa, xalqimiz orasida chin iste'dodlar shunchalik ko'p. Bu mamlakatimizda turli xalqaro musiqiy festival va tanlovlar ko'tarinki ruhda, san'at namoyandalari va shinavandalari jipsligida o'tkazib kelinayotganida ham aks etadi.

Yaqinda Jizzax viloyatining Zomin tumanida II Xalqaro maqom san'ati anjumani yuqori saviyada tashkil etildi. Xalqaro tadbir doirasida milliy maqom san'ati yo'nalishida respublika ko'rik-tanlovi ham bo'lib o'tdi. Mana endi musiqiy estafeta Zomindan Samarqandga o'tyapti. Yana bir necha kunlardan so'ng ko'hna va navqiron shaharda "Sharq taronalari" XIII xalqaro musiqa festivali mehmonlarga o'z eshiklarini ochadi. Ayni kunda nufuzli tadbirga qizg'in hozirlik ko'rilmoqda.

O'zbek milliy maqom san'ati markazi bosh direktori Avazbek Shomurodov bilan subhatimiz bu ikki ko'rik-tanloving uyg'unligi, bugungi taraddud jarayoni va kelgusi rejalari xususida bo'ldi.

Davlatimiz rahbarining 2018-yil 6-apreldagi qarori asosida yuqori saviyada o'tkazilgan II Xalqaro maqom san'ati anjumani qator muhim tanlov, bellashuv, ilmiy tadbirlarni o'zida jamlagan bilan ham ahamiyatli bo'ldi, — deydi subhatdoshimiz. — Masalan, milliy maqom san'ati yo'nalishida respublika ko'rik-tanlovi tashkilotlari, "Eng yaxshi xonanda — erkak ovozi", "Eng yaxshi xonanda — ayol ovozi", "Eng yaxshi maqom ansambli" va "Eng yaxshi maqom sozandasi" kabi 4 ta yo'nalishda O'zbekiston xalq artisti, ustoz sozanda va bastakor Abdulhoshim Ismoilov boshchiligidagi nufuzli hakamlar hay'ati tomonidan eng saralari aniqlab olindi.

Shuningdek, xorijiy ishtirokchilarni saralash bo'yicha ham tashkiliy-ishchi guruh a'zolari samarali faoliyat yuritdi. Bundan tashqari, anjuman doirasida "Maqom san'atining nazariy va amaliy asoslari: muammo va yechimlar" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya bo'lib o'tdi. Unda 30 dan ortiq davlatdan 70 nafardan ziyod olim ishtirok etdi. Zomin festivalida O'zbek milliy maqom san'ati markazining Yunus Rajabiy nomidagi maqom ansambli faol ishtirok etgani ham alohida e'tirof etildi.

Yana bir necha kunlardan keyin UNESCO shafeligida Samarqandda ish boshlaydigan "Sharq taronalari" festivalida ham yangi iqtidorlar, yangi nomlar kashf etiladi. San'at ixlosmandlariga musiqaning sehrli olami bilan oshno bo'lishga yana bir imkon beriladi. Zomin va Samarqand anjumanlarining mushtarak maqsadlari haqida nima deya olasiz?



hujjatli filmlar, audio va videodisklar, kitob-fotografik yarmakalari tashkil etiladi. Buning uchun Samarqandning "Boqiy shahar" majmuasi tanlab olingan.

Bunda turizmi rivojlantirishga qaratilayotgan e'tiborni hisobga olib tashkiliy ishlar yuritilmoqda. Masalan, maqom ustozlarining bizgacha yetib kelgan durdona asarlari, qo'lyozmalari, ular foydalangan musiqiy cholg'u asboblari va buyumlari xorijlik mehmonlar, keng ommaga ko'rsatishga qulay qilib joylanmoqda. Qolaversa, mahorat daralarini tashkil etishga sharoit yaratildi. Yarmarka-ko'rgazma Shahrisabz Maqom muzeyi, Samarqanddagi Hoji Abdulaziz Abdurasulov uy muzeyi, Samarqand viloyati muzey qo'riqxonasi va O'zbek milliy maqom san'ati markazida saqlanayotgan eksponatlardan tashkil topadi.

— Bu yilgi festival kun tartibi qanday? Avvalgilardan farqli o'laroq, qaysi jihatlar ahamiyat qaratiladi?

— Bu borada Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 25-apreldagi qarori bilan tasdiqlangan "Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivalini o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizom mavjud. Hujjatda festivalning betakror ruhi va qiyofasini, o'ziga xosligini aks ettirish nazarda tutilgan. Ayni paytda xalqlar o'rtasida do'stlik rishtalarini mustahkamlash, tinchlik, ahillikni keng targ'ib etish, mamlakatimiz musiqa san'atining jahon hamjamiyatidagi nufuzini yanada oshirish ham nazardan chetda qolmasligi kerak. Shu orqali boy tarixiy va betakror madaniyatimizni keng targ'ib etishimiz lozim. Tashkiliy ishlar mana shunday jihatlar hisobga olingan.

Bundan tashqari, festival Sharq xalqlari musiqa san'atini rivojlantirish va uning ahamiyatini oshirish, o'zbek hamda boshqa xalqlarning musiqa san'ati an'alarini qamrab olish, ular bilan yaqindan ilmiy va ijodiy muloqot va hamkorlik qilish, yosh avlodni musiqa san'atiga, ayniqsa, o'zbek milliy musiqasiga qiziqishini qanoatlantirish kabilarni nazarda tutgan holda o'tkaziladi.

Sharq mamlakatlari musiqa san'ati an'alarini asrash, madaniy muloqotni yanada rivojlantirish, an'anaviy musiqa san'ati sohasidagi ilmiy o'rganish va izlanishlarni hamkorlikda amalga oshirish, o'zaro tajriba almashish, davra subhatlari, taqdimot va mahorat daralarini tashkil etish ham tadbirning asosiy yo'nalishlaridan hisoblanadi.

Shundan kelib chiqib, "Sharq taronalari" XIII xalqaro musiqa festivali tadbirlari quyidagi tartibda rejalashtirilgan: tantanali ochilish marosimidan so'ng mutaxassislar ikki kun "Sharq xalqlari musiqa madaniyati: globalshuv jarayonlarida ijodiy uyg'unlashuv tamoyillari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyada ishtirok etadi. Unda musiqashunos olimlar, ilmiy tadqiqot markazlari olimlari, musiqiy oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari hamda tadqiqotchidoktorant va magistrantlar jam bo'ldi.

"Sharq taronalari" ishtirokchilari o'rtasida ko'rik-tanlov o'tkaziladi. Unda xalqaro hay'at tomonidan chiqishlar ikkita yo'nalish bo'yicha baholanadi: professional (klassik) darajadagi xalq musiqasi va qo'shiq yo'nalishi; zamonaviy kompozitorlar tomonidan yaratilgan musiqa va qo'shiq yo'nalishi.

Festivalning tantanali yopilish marosimida g'oliblar nomi e'lon qilinib, taqdirlanadi. Ularga tashkiliy qo'mita tomonidan diplom, statuetka va pul mukofotlari beriladi.

**Suhbatni
"Yangi O'zbekiston" muxbiri
Nodir MAHMUDOV yozib oldi.**

Mulohaza



YOXUD YOLG'ONNING IJTIMOIY OQIBATLARI

Bir uzuk tarixi

Mamlakatimiz rahbarining "O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz uch yillik bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida"gi qarorida barcha sohalarda erishilgan ulkan yutuqlar, oldimzda turgan qator vazifalar o'z aksini topgan. Ayni paytda istiqbol yillarida xalqimizning fidokorona mehnati evaziga qo'lg'a kiritilgan muvaffaqiyatlarni xolisona targ'ib etish, turli ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazish asosida fuqarolar tafakkur tarzidagi tub o'zgarishlar mohiyatini ochib berishdan iborat vazifalar belgilandi.

**Ergash DAMINOV,
tarix fanlari bo'yicha
falsafa doktori,
dotsent**

Mazkur qarorni o'qiy turib, xayolan sovet davri tarixiga, yaqin va uzoq o'tmishda mamlakatimiz va xalqimiz ijtimoiy-ma'naviy hayotidagi ayrim jihatlarga e'tibor berdim. Bugungi kun nuqtayi nazaridan yaqin tariximizga nigoz tashlar ekanimiz, o'sha davr jamiyati qurug' sifatsabozlik va yolg'onga asoslanganini, xalqimiz bunday aldovlar girdobida yashab, ishlaganini ko'rishimiz mumkin.

O'sha paytdagi "Sovet davlati eng adolatli davlat", "G'arb jamiyati — kelajagi yo'q jamiyat", "O'zbek xalqi o'z taqdirini o'zi belgilaydi" kabi shiorlar tom ma'noda yolg'ondan iborat chaqiriqlar bo'lganini bugun birovga isbotlashning hojati yo'q.

Mustaqillik yillarida biz rost gapirishni o'rgandik. Prezidentimiz har doim katta va kichik rahbarlardan rostlikni talab qilishi, sovet davridagi "ura-ura"lar davri o'tib ketganini bot-bot takrorlashning zamirida katta hayotiy haqiqat turibdi. Yolg'onga asoslangan mamlakat va jamiyatning kelajagi yo'qligi bugun barchaga ayon.

Yolg'on, ta'bir joiz bo'lsa, o'ta katta axloqsizlik va ma'naviyatsizlikdir. Ana shu holat har qanday jamiyatni tanazzul sari yetaklaydi, davlat siyosati va boshqaruvini kuchsizlantiradi, korruptsiya, jinoyatchilik va axloqsizlik kabi illatlar, turli ichki va tashqi tahdidlarning ildiz o'tishiga sabab bo'ladi. Bunga yaqin va uzoq tarixdan ko'plab misollar keltirish mumkin.

Yolg'on — illat. Undan qutulish qiyin. Chunki bir yolg'onning rostligini isbotlash uchun yana bir yolg'onni to'qishga to'g'ri keladi. Yolg'onni bir zarb bilan bartaraf etib ham bo'lmaydi. Yolg'onning ildizi chuqur bo'ladi. Shu bois, uning umri ham uzun.

Shuning uchun bo'lsa kerak, hali ham biz yolg'ondan to'liq qutula olmayapmiz. Ko'pincha bilimsizligimiz, tajribasizligimiz, uqovsizligimiz, dangasaligimizni yolg'on asosida xaspo'shlagga urinamiz.

Odamlar nima uchun yolg'on so'zlaydi?

Tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, odam bolasining yolg'on gapirishi uchun muayyan sabablar bo'ladi. Jumladan:

— Tijoratda foyda olish maqsadida yolg'on ishlatish. Bu ijtimoiy hayotning boshqa jihatlariga ham taalluqli. Zero, tijoriy bo'lsin, ma'naviy bo'lsin, kasbiy bo'lsin — foyda olish ayrim e'tiqodi sust insonlarni yolg'onga undaydi.

— Xavf, zarar, jazodan qutulib qolish ilinj. Bu bolalikdan rivojlanadi. Voyaga yetgach esa faoliyat davomida duch kelgan ilk qiyinchilik holatidayoq yolg'on ishlatadi. Chunki bu unda odatga aylangan.

Eng yomoni, ushbu toifa odamlar uchun yolg'on tabiiy va odatiy bo'lib, qilyotgan ishidan zarracha xijolat chekmaydi. Shu o'rinda yozuvchi K.A.Fedinning: "Yolg'onchilik zo'rlik boshlangan joyda tug'iladi", degan so'zlari o'rinni. Binobarin, bolaning yolg'onga o'rganishi tarbiya mahsulidir. Tarbiya kuch ishlatish, jazolash ustiga qurilgan bo'lsa, bola yolg'onga moyil bo'ladi. Aldash orqali tizimli ravishda

jazodan qutulib qolgan bola uchun "yolg'on — najot" shiori hayotiy maqsadga aylangani.

— Atrofdagilar, subhatdoshlar e'tiborini qozonish, gapirayotgan fikrlarini ta'sirchan va go'zal ifodalash maqsadi. Aslida, olimlarning, fozil-u fuzolalarning subhati ta'sirchan bo'ladi. Ularning so'zlari ilmiy dalillar, hikmatlar bilan quvvatlanadi, aslo yolg'on bilan emas. Shunga ko'ra, ilmdan uzoq, kitob o'qishni istamaydigan, donishmandlar subhatidan yiroq yalqovlar toifasi shu tarzda yo'l tutadi.

— Qasd, o'ch olish. Ushbu turdagi yolg'on obyektning o'ziga yoki raqib haqida boshqalarga qo'llanishi mumkin. Umuman, bu yolg'on ko'proq tuhmatdir. Tuhmatning esa oqibati xatarli bo'ladi. Insonlar nomi badnom qilinadi, obro'sizlanadi, oilasi tinchligiga raxna solinadi. Uni "ko'tarish"ga hamma ham qodir emas. Ba'zilar uning oldida taslim bo'lib, o'z joniga qasd qilishi mumkin.

Mashhur yozuvchi Jan-Jak Russo bu haqda fikr yuritir ekan: "Ziyon yetkazish uchun aldash — bo'hton. Bu yolg'onning eng yomon zahridir", deydi.



O'zida bo'lmagan fazilatlarini bordek ko'rsatish, insonlar orasida hurmat chaqiradigan naslu nasab, mansab kabilarni o'zlashtirish, o'zidan o'z idealidagi shaxsni "yasab olish".

Mazkur yolg'onning jinoiy oqibatlari ham bor. Chunki ayrim holatlar, masalan, kuch ishlatar tuzilmalari vakili sifatida o'zini tanitish, bundan muayyan moddiy manfaat olishga intilish, keyinchalik ba'zan shu niqobda jinoyat qilishgacha olib keladi.

— Subhatdoshiga yomon ko'rinishlik, nazardan qolmaslik uchun uning so'zlarini ma'quullash maqsadida yolg'on ishlatish. Ayrim insonlar o'zidan moddiy yoki ijtimoiy jihatdan kuchli subhatdoshiga yaxshi ko'rinish, uning ixtiyoriga qarshi bora olmasligi tufayli yolg'on ishlatadi, hech bo'lmaganda uning yolg'onini qo'llab-quvvatlaydi. Buning asl sababi yo qo'rquv va yo kelajakdagi manfaat ilinjidir.

Rus yozuvchisi Aleksandr Kuprinning: "Hammadan ham ko'ra, men qo'rqoqlik va o'zilik tufayli to'qilgan yolg'ondan jirkanaman", ingliz davlat arbobi, yozuvchi Filip Dormer Stenxop Chesterfeldning: "Yolg'onchilik zo'rlik boshlangan joyda tug'iladi", degan so'zlari ayni shu toifa insonlarga qaratilgan.

Ko'rinib turganidek, aksar holatlarda yolg'onning sababi, moddiy bo'lsin, ma'naviy bo'lsin, manfaat hisoblanadi.

AQSHda tadqiqot olib borgan tarixshunos olim, akademik Inoyitillo Shahriniyning ta'kidlashicha, gardishida "Rosti — rusti" so'zlari bitilgan uzuk, aslida, turk xoqoni O'g'uzxonaga tegishli bo'lgan. Oltin uzuk halqasi ko'ziga nefrit tosh o'rnatilgan. Halqa hoshiyasida nasx xatida, tosh joylashgan ko'zi tagida kufiy xatida yozuv bor.

Bu uzuk avloddan avlodga meros bo'lib o'tib, IX asrda Bag'dod sultoni Xolid ibn Barmak qo'lga kelib tushgan. Shu tariqa o'sha mashhur uzuk Amir Temurga yetib kelgan. Filologiya fanlari doktori, professor Ahmadjon Quronbekov "Amir Temur hayoti hikoyalari" kitobida yozishicha, Amir Temur 21 yoshida shayx Zayniddin Abu Bakrga murid tushgan. Shayx Amir Temurga o'z bosh kiyimi hamda "Rosti — rusti" naqsh qilingan aqiq ko'zli uzuk beradi. "Rosti — rusti" so'zi o'zbek tiliga tarjima qilganda "Rostgo'y bo'lsang, najot topasan" ma'nosini beradi. Shu tariqa ulug' sarkarda aynan shu uzukdan muhr sifatida foydalanadi. Masalan, Amir Temurning Karl IV ga yozgan xatiga ham ana shu muhr bosilgan. Buyuk sarkarda, ulkan saltanat egasi nima uchun to'g'riso'zlikka, haqqo'ylikka e'tibor qaratdi? Nima uchun buni shior etib, targ'ib qildi?

Bunga yuqorida keltirilgan ma'lumotlar sabab bo'lmadimkan?

Fors-tojik shoiri, mutafakkir Sa'diy Sheroziy ta'biri bilan aytganda, yolg'onni sabab beviqor bo'lganlar xalqimiz orasida bo'lmagisi uchun kurashgandir?!

Dinni chuqur bilgan Amir Temur ilohiy buyruq, ogohlantirishlari hadislar hikmatiga